

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK  
UNIVERSITETI**

**MILLIY QONUNCHILIKDAGI**

**ASOSIY HUQUQIY**

**TUSHUNCHALARNING**

**IZOHЛИ LUG'ATI**

**Toshkent – 2021**

**Milliy qonunchilikdagi asosiy huquqiy tushunchalarining izohli lug‘ati.** – T., TDSHU, 2021. – 160 b.

**Tuzuvchilar:** Sharipov Rustam Husniddinovich  
Sharipova Hilola Rustamovna

O‘quvchilar e‘tiboringa xavola etilayotgan mazkur nashrda O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida foydalanilgan asosiy tushunchalar izohi bilan alifbo tartibida berilgan.

Qonun ijodkorligida foydalaniladigan asosiy tushunchalarni talqin etish va amaliyotda qo‘llashga alohida e‘tibor qaratish lozim. Sababi, bir qator holatlarda bir tushunchaning o‘zi turli qonun hujjatlarida har xil ma’noda berilishi va talqin etilishini kuzatish mumkin. Buni esa, o‘z navbatida, mazkur qonun hujjatlarini amaliyotda qo‘llashda hisobga olish zarur, deb hisoblaymiz.

Mazkur nashr ilmiy xodimlar, amaliyotchi yuristlar, yuridik va tillarni o‘qitishga ixtisoslashgan oliygochlarning o‘qituvchilari, magistrant va talabalari hamda qonunchilik texnikasi masalalari bilan qiziqqan barcha o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

**Mas‘ul muharrir:**  
**Rustam Zufarov**

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish” kafedrasining professori,  
yuridik fanlar doktori

**Taqrizchilar:**  
**Nilufar Xodjaeva**

TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasini  
mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Umid Aminov**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokyraturasini Akademiyasi “Iqtisodiy jinoyatlar va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashni tashkil etish” kafedrasini o‘qituvchisi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasining 2021 yil  
27 avgustdaggi 1-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## LOTIN GRAFIKASIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK ALIFBOSI<sup>1</sup>

Harflarning joylashish tartibi	Katta harflar	Kichik harflar	Harflarning kirill yozuvidagi shakli
1.	A	a	А а
2.	B	b	Б б
3.	D	d	Д д
4.	E	e	Э э
5.	F	f	Ф ф
6.	G	g	Г г
7.	H	h	Ҳ ҳ
8.	I	i	И и
9.	J	j	Ж ж
10.	K	k	Қ қ
11.	L	l	Л л
12.	M	m	М м
13.	N	n	Н н
14.	O	o	О о
15.	P	p	П п
16.	Q	q	Қ қ
17.	R	r	Р р
18.	S	s	С с
19.	T	t	Т т
20.	U	u	Ү ү
21.	V	v	В в
22.	X	x	Ҳ ҳ
23.	Y	y	Й ў
	Ya	ya	Я я
	Ye	ye	Е е
	Yo	yo	Ё ё
	Yu	yu	Ю ю
24.	Z	z	З з
25.	O‘	o‘	Ӯ ӹ
26.	G‘	g‘	Ғ ғ
27.	Ch	ch	Ҷ ҷ
28.	Sh	sh	Ш ш
29.	ng	ng	(нг)

<sup>1</sup> Jadvalda lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosidagi harflarning tartibi, katta va kichik yozilish shakkllari hamda kirill yozuvidagi shakkllari berilgan.

# A

<p><b>Abonentlik pochta javoni</b></p>	<p>Turar joy binosining kirish yo‘lagi (vestibyuli)da, shuningdek xat-xabarlar va davriy nashrlar etkaziladigan uchastkada adresatlarning yozma xat-xabarlar va davriy nashrlarni olishlari uchun o‘rnataladigan, qulflanadigan qutichalardan iborat maxsus javon.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II – son Qonuni)</i></p>
<p><b>Avariya rejimi</b></p>	<p>Elektr energetikasi ob’ektlari ishlashi texnologik parametrlarining yagona elektr energetikasi tizimining ishonchli ishlab turishi buzilishiga va istemolchilarga elektr energiyasi etkazib berilishi cheklanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan, yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan tarzda buzilishi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektr energetikasi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-225 – son Qonuni)</i></p>
<p><b>Avtomobil yo‘li</b></p>	<p>Transport vositalari harakatlanishi uchun mo‘ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og‘irlikda, o‘lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta’minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan er uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo‘shliq.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida» 02.10.2007 yildagi O‘RQ-117 – son Qonuni)</i></p>
<p><b>Avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilar</b></p>	<p>Yo‘l harakatining ishtirokchilari bo‘lgan yoki ajratilgan mintaqqa hamda yo‘l bo‘yi mintaqasi doiralarida belgilangan tartibda ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.</p>

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida» 02.10.2007 yildagi O‘RQ-117 – son Qonuni)</p>
Avtotransport vositalari	<p>Yo‘lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 674-I – son Qonuni)</p>
Adresat	<p>Pochta jo‘natmasi, pul mablag‘larining pochta o‘tkazmasi, telegraf xabarlari va boshqa xabarlar yo‘llangan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II – son Qonuni)</p>
Ajratilgan mintaqा	<p>1. Temir yo‘l transportining tuproq ko‘tarmasi, sun’iy inshootlar, yo‘l binolari, temir yo‘l aloqasi va elektr ta’minoti qurilmalari, temir yo‘l bekatlari, boshqa binolar, inshootlar va yo‘l qurilmalari, shuningdek ihota daraxtzorlari joylashgan erlari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni).</p> <p>2. Avtomobil yo‘li, uning tegishli konstruktiv elementlari va muhandislik inshootlari, shuningdek avtomobil yo‘lidan foydalanish uchun zarur bo‘lgan binolar, inshootlarni joylashtirish, ihota va manzarali daraxtzorlar barpo etish uchun doimiy foydalanishga qonun hujjalariда belgilangan tartibda beriladigan er uchastkasi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida» 02.10.2007 yildagi O‘RQ-117 – son Qonuni)</p>

Aylanma kassa mablag‘i me’yori	Moliya yilida respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to ‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</i>
Akkreditatsiya	Yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to ‘g‘risida” 04.10.2013 yildagi O‘RQ-354 – son Qonuni)</i>
Akkreditatsiya sohasi	Muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chog‘ida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to ‘g‘risida” 04.10.2013 yildagi O‘RQ-354 – son Qonuni)</i>
Aksilreklama	Noto‘g‘ri (insofsiz, bila turib yolg‘on) reklama keltirib chiqargan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni bartaraf etish maqsadida tarqatiladigan raddiya.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to ‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 723-I – son Qonuni)</i>
Aksiya	O‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Alkogol mahsuloti	<p>Konyak spirti yoki tozalangan etil spirtidan, vino materiallari va (yoki) tarkibida spirt bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan, hajmidagi etil spirtining ulushi bir yarim foizdan ortiq bo‘lgan oziq-ovqat mahsuloti.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Alkogolъ va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida» 05.10.2011 yildagi O‘RQ-302 – son Qonuni)</p>
Alohida davr	<p>Safarbarlik (harbiy holatni joriy etish) to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdan boshlanadigan davr, shu jumladan harbiy harakatlar olib boriladigan butun davr.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida» 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458 – son Qonuni)</p>
Alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishning salbiy ta’siri profilaktikasi	<p>Alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish bilan bog‘liq fuqarolar sog‘lig‘iga, avvalo, yoshlar sog‘lig‘iga, ularning jismoniy, ma’naviy rivojlani-shiga, jamiyatning ma’naviy-axloqiy negizlariga tahdidlarning hamda boshqa tahdidlarning oldini olishga va ularni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy chora-tadbirlar hamda boshqa chora-tadbirlar majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida» 05.10.2011 yildagi O‘RQ-302 – son Qonuni)</p>
Ansambllar	<p>Tarixan tarkib topgan hududda aniq ko‘zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me’moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega</p>

	<p>bo‘lgan, ijtimoiy, ma’muriy, diniy, ilmiy, o‘quvta’lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, me’morchilik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog‘-rog‘ san’ati asarlari (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, sayilgohlar).</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» 30.08.2001 yildagi 269-II – son Qonuni)</i></p>
Aprobatsiya qilish	<p>O‘simliklarning genetik (nav) jihatidan qanchalik toza ekanligini, kasalliklarga, zararkunandalarga chidamliligi va ekishga mo‘ljallangan urug‘likning umumiyligi holatini aniqlash maqsadida dalada o‘tkaziladigan tadqiqot.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Urug‘chilik to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 267-I – son Qonuni)</i></p>
Ariza beruvchi	<p>Davlat organiga so‘rov bilan murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida» 09.12.2015 yildagi O‘RQ-395 – son Qonuni)</i></p>
Arizachi	<p>Patent yoki guvohnoma berish haqida talabnomaga topshirgan jismoniy yoxud yuridik shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 270-I – son Qonuni)</i></p>

Arxeolog	Tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lgan tadqiqotchi.  (O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)
Arxeologiya ashysosi	Arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini amalga oshirishda yoki xo'jalik va o'zgacha faoliyat jarayonida aniqlangan, shuningdek tasodifan topilgan (xazina) va identifikatsiyalashdan o'tkazilgan moddiy qoldiq.  (O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)
Arxeologiya ashylari davlat katalogi	Har bir arxeologiya ashysosi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan hisobga olish hujjati.  (O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)
Arxeologiya yodgorligi	Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga kiritilgan arxeologiya ob'ekti.  (O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)
Arxeologiya merosi ob'ektlari	Arxeologiya ob'ektlari va arxeologiya ashylari majmui.  (O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)

Arxeologiya nazorati	<p>Arxeologiya tadqiqotining arxeologiya ob'ektini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan va arxeologiya ob'ekti hududining chegaralarida er qazish, er tuzish, qurilish, melioratsiya, xo'jalik, yo'lsozlik ishlarini va boshqa ishlarni bajarishda madaniy meros ob'ektlarini saqlash talablariga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatiladigan turi.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)</i></p>
Arxeologiya ob'ekti	<p>Inson faoliyatining barcha ko'rinishlariga taalluqli hamda saqlanish holatidan qat'i nazar arxeologik, antropologik, etnografik qimmatga yoki o'zga tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy qimmatga ega bo'lgan joy, inshoot (asar), imorat, majmua (ansambl), ularning bo'laklari, ular bilan bog'liq hududlar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)</i></p>
Arxeologiya tadqiqoti	<p>Arxeologiya ob'ektlari, arxeologiya yodgorliklari va arxeologiya ashyolarini o'rganish orqali yangi bilimlarni egallash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)</i></p>
Arxeologiya qazishmalar	<p>Arxeologiya tadqiqotining arxeologiya ob'ektida qazishma ishlarini qo'llagan holda madaniy qatlamlar, me'moriy va boshqa moddiy qoldiqlarni o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan turi.</p>

	(O‘zbekiston Respublikasining “Arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» 13.10.2009 yildagi O‘RQ-229 – son Qonuni)
Arxiv	<p>1. Arxiv hujjatlari majmui, shuningdek arxiv muassasasi yoki korxona, muassasa va tashkilotning arxiv hujjatlarini qabul qiluvchi, saqlovchi va ulardan foydalanuvchi tarkibiy bo‘linmasi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 768-I – son Qonuni)</p> <p>2. Arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</p>
Arxiv ishi	<p>1. Arxiv hujjatlarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etishga oid faoliyat.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 768-I – son Qonuni)</p> <p>2. Arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish bo‘yicha faoliyat.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</p>
Arxiv fondi	<p>1. Tarixiy yoki mantiqiy jihatdan bir-biri bilan aloqador arxiv hujjatlari majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 768-I – son Qonuni)</p> <p>2. Yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyati natijasida yaratilgan, tarixiy yoki mantiqiy jihatdan o‘zaro aloqador arxiv hujjatlari majmui.</p>

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</p>
Arxiv hujjatlari	<p>1. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli ekspertiza asosida arxiv ahamiyatiga molik deb topilgan matnli, qo‘lyozma va mashinada o‘qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya pylonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek turli moddiy ashyolardagi yozuvlar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 768-I – son Qonuni)</p> <p>2. Fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ahamiyati bois saqlanishi lozim bo‘lgan matnli, qo‘lyozma va mashinada o‘qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya pylonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek boshqa moddiy jismlardagi yozuvlar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</p>
Arxiv hujjatlarini vaqtincha saqlash	<p>Arxiv hujjatlarini arxivlarda qonun hujjatlarida belgilangan davr mobaynida saqlash.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 768-I – son Qonuni)</p>
Arxiv hujjatlarini depozitar saqlash	<p>1. Arxiv hujjatlarini hujjatlar mulkdori bilan arxiv, muzey, kutubxona o‘rtasidagi kelishuv (shart-noma) bo‘yicha belgilanadigan shartlar asosida mulkdorning arxiv hujjatlariga nisbatan mulk huquqini saqlab qolgan holda arxivda, muzeyda, kutubxonada saqlash.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 768-I – son Qonuni)</p>

	<p>2. Arxiv hujjatlarini ularning mulkdori (egasi) bilan arxiv, muzey, kutubxona o‘rtasidagi kelishuvda (shartnomada) belgilanadigan muddatlar va shartlar asosida mulkdorning (egasining) arxiv hujjatlariga bo‘lgan mulk huquqini (egalik huquqini) saqlab qolgan holda saqlash.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to ‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</i></p>
Arxiv hujjatlarini doimiy saqlash	<p>Arxiv hujjatlarini arxivda, muzeyda, kutubxonada cheklanmagan muddatlarda saqlash.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxivlar to ‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 768-I – son Qonuni)</i></p>
Asar nusxasi	<p>Asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan ko‘chirmasi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to ‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 272-I – son Qonuni)</i></p>
Asarni omma oldida namoyish etish	<p>Asarning asl nusxasi yoki nusxasini bevosita yoxud plyonka, diapositiv, televizion kadr yordamida yoki biron-bir boshqa texnika vositalari orqali ekranda ko‘rsatish, shuningdek audiovizual asarning ayrim kadrlarini ularning ketma-ketligiga rioya etmasdan omma uchun ochiq joyda yoki ayni bir oila a’zolari bo‘lmagan shaxslarning keng doirasi hozir bo‘lgan joyda ko‘rsatish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to ‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</i></p>
Asarni oshkor qilish	Muallifning roziligi bilan amalga oshirilgan, asarni chop etish, omma oldida namoyish etish, omma oldida ijro etish, efirga uzatish yoki boshqacha usulda yuborish yo‘li bilan ilk bor asardan barchaning voqif bo‘lishi uchun imkon beradigan harakat.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Audiovizual asar	<p>Bir-biri bilan bog‘langan (ovozi jo‘rligida yoki ovozi jo‘rligisiz) tasvirlarning yozib olingan turkumidan iborat bo‘lgan, tegishli texnika vositalari yordamida ko‘rib va eshitib (ovozi jo‘rligida bo‘lganida) idrok etish uchun mo‘ljallangan asar, shu jumladan dastlabki yoki keyingi qayd etish usulidan qat’i nazar kinematografiya asarlari va kinematografiyanikiga o‘xshash vositalar bilan ifodalangan barcha asarlar (tele- va videofilmlar, diafilmlar, slaydfilmlar hamda boshqa asarlar).</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Audiovizual asarni tayyorlovchi	<p>Shunday asarni tayyorlash tashabbusi va mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Axborot	<p>Manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</p>
Axborot borasidagi xavfsizlik	<p>Axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</p>

Axborot-kutubxona faoliyati	<p>Axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni tashkil etish bo‘yicha faoliyati.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida» 13.04.2011 yildagi O‘RQ-280 – son Qonuni)</i></p>
Axborot-kutubxona fondi	<p>Tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmui.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida» 13.04.2011 yildagi O‘RQ-280 – son Qonuni)</i></p>
Axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish	<p>Foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta’minlash.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida» 13.04.2011 yildagi O‘RQ-280 – son Qonuni)</i></p>
Axborot mahsuloti	<p>O‘zbekiston Respublikasi hududida aylanish uchun mo‘ljallangan ommaviy axborot vositalari mahsuloti, bosma mahsulot, har qanday turdagи tashuvchilardagi audiovizual mahsulot, dasturiy ta’minotdan foydalangan holda tarqatiladigan, telekommunikatsiya tarmoqlariga, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtiriladigan axborot, kompyuter o‘yinlari, shuningdek tomoshabop tadbirlar vositasida tarqatiladigan axborot.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida» 08.09.2017 yildagi O‘RQ-444 – son Qonuni)</i></p>

Axborot mahsulotining aylanishi	<p>Axborot mahsulotini taqdim etish va (yoki) tarqatish, shu jumladan uni sotish (shu jumladan obuna bo‘yicha tarqatish), ijaraga, prokatga berish, axborot-kutubxona muassasalari fondlaridan tarqatish, berish, ommaviy namoyish qilish, ommaviy ijro etish (shu jumladan efir yoki kabel uzatuvi, tomoshabop tadbirlar vositasida), telekommunikatsiya tarmoqlariga, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida» 08.09.2017 yildagi O‘RQ-444 – son Qonuni)</i></p>
Axborot mahsulotining yoshga oid toifasi belgisi	<p>Axborot mahsulotining yoshga oid toifasining grafik va (yoki) matnli belgisi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida» 08.09.2017 yildagi O‘RQ-444 – son Qonuni)</i></p>
Axborot mulkdori	<p>O‘z mablag‘iga yoki boshqa qonuniy yo‘l bilan olingan axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</i></p>
Axborot resurslari	<p>Alohiba hujjatlar, hujjatlarning alohiba to‘plamlari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalar-dagi, arxivlardagi, fondlardagi, ma’lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to‘plamlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni).</i></p>

	<p>2. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborotlash-tirish to'g'risida» 11.12.2003 yildagi 560-II – son Qonuni)</i></p>
Axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori	<p>Axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborotlash-tirish to'g'risida» 11.12.2003 yildagi 560-II – son Qonuni)</i></p>
Axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi	<p>Qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborotlash-tirish to'g'risida» 11.12.2003 yildagi 560-II – son Qonuni)</i></p>
Axborot sohasi	<p>Sub'ektlarning axborotni yaratish, qayta ishslash va undan foydalanish bilan bog'liq faoliyati sohasi.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</i></p>
Axborot tizimi	<p>Axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborotlash-tirish to'g'risida» 11.12.2003 yildagi 560-II – son Qonuni)</i></p>

Axborot egasi	<p>Qonunda yoki axborot mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</i></p>
Axborotlashtirish	<p>Yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborotlash-tirish to'g'risida» 11.12.2003 yildagi 560-II – son Qonuni)</i></p>
Axborotni muhofaza etish	<p>Axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</i></p>
Axborotni oshkor qilish	<p>Qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni olish maqsadidan qat'i nazar, axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta'minlash.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida» 22.07.2008 yildagi O'RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y-harakatlari majmui.

muhofaza qilish	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to ‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 824-I – son Qonuni)</i>
-----------------	--

## B

Bagaj	Yo‘lovchi olib ketayotgan va safar davomida yo‘lovchilar vagonida uning yonida bo‘ladigan buyumlar, tovarlar va boshqa moddiy boyliklar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to ‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i>
Begona o‘tlar	Biologik va ekologik jihatdan madaniy o‘simpliklar orasida o‘sib ko‘payishga moslashgan, hosilni hamda mahsulot sifatini pasaytiruvchi yovvoyi yoki yarim xonaki o‘simpliklar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jalik o‘simpliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to ‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 116-II – son Qonuni)</i>
Barchaning e’tiboriga etkazish	Asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini simlar yoki simsiz aloqa vositalari orqali telekomunikatsiya tizimlaridan foydalanuvchilar o‘z tanloviga ko‘ra istalgan joyda va istalgan vaqtida ulardan foydalana olishi mumkin bo‘lgan tarzda barchaning e’tibori uchun yuborish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to ‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</i>

Barchaning e'tibori uchun yuborish	<p>Asarlarni yoki turdosh huquqlar ob'ektlarini efirga uzatish, kabel orqali yuborish, shuningdek ularni yuborish joyida vakillari bo'lmasligi omma eshitib va (yoki) ko'rib idrok etishi uchun, shu tarzda eshitish yoki ko'rish mumkin bo'lgan asarlar yoki turdosh huquqlar ob'ektlari amalda idrok etilishi- etilmasligidan qat'i nazar, har qanday boshqacha usullarda etkazish (nusxalarni tarqatish bundan mustasno).</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" 20.07.2006 yildagi O'RQ-42 – son Qonuni)</i></p>
Bir-birining o'rnini bosadigan tovarlar	<p>1.Belgilangan vazifasi, qo'llanilishi, sifati va texnikaviy tavsiflari, narxi va boshqa jihatlariga ko'ra taqqoslanishi mumkin bo'lgan tovarlar guruhi.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida" 27.12.1996 yildagi 355-I-sod Qonuni)</i></p> <p>2. O'zining belgilangan vazifasi, qo'llanilishi, sifat va texnik xususiyatlari, narxi hamda boshqa parametrlari bo'yicha taqqoslanishi mumkin bo'lgan shunday tovarlarki, ularni oluvchi iste'mol qilish chog'ida bir tovarni boshqasiga haqiqatan ham almashtiradi yoki almashtirishga tayyor bo'ladi.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" 06.01.2012 yildagi O'RQ-319 – son Qonuni)</i></p>
Birlik etalonи	<p>O'lcham birligini boshqa o'lchov vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lchov vositasi.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida" 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</i></p>

Bloger	<p>Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan axborotdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-lashtirish to‘g‘risida» 11.12.2003 yildagi 560-II – son Qonuni)</i></p>
Bola (bolalar)	<p>O‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga etgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar).</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida» 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139 – son Qonuni)</i></p>
Bolalar sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborot	<p>Bolalar o‘rtasida tarqatilishi ushbu Qonunga muvofiq taqiqlangan yoki cheklangan axborot mahsuloti.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida» 08.09.2017 yildagi O‘RQ-444 – son Qonuni)</i></p>
Bolalarbop oziq-ovqat mahsulotlari	<p>Bolalar organizmining (uch yoshgacha) fiziologik xususiyatlariga javob beradigan maxsus oziq-ovqat mahsulotlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i></p>
Bolalarning sog‘lig‘i	<p>Bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan sog‘lomlik holati.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan</i></p>

	<i>himoya qilish to ‘g‘risida» 08.09.2017 yildagi O‘RQ-444 – son Qonuni)</i>
Bolaning qonuniy vakillari	Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiyalar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to ‘g‘risida» 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139 – son Qonuni)</i>
Bonitirovka	Hayvonlarning nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini baholash.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Naslchilik to ‘g‘risida» 21.12.1995 yildagi 165-I – son Qonuni)</i>
Boshlang‘ich matn	Birorta dasturlash tilida yozilgan, biron-bir kompilyator qayta ishlamagan matn.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to ‘g‘risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i>
Byudjet dotatsiyasi	O‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to ‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-Hson Qonuni)</i>
Byudjet jarayoni	Davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Byudjet profitsiti	<p>Muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Byudjet ssudasi	<p>Yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Byudjet subvensiyasi	<p>Qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Byudjet so‘rovi	<p>Byudjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi so‘rov.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Byudjet tashkiloti	<p>Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.</p>

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Byudjet taqchilligi	<p>Muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Byudjet transferti	<p>Byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Byudjetdan mablag‘ ajratish	<p>Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag‘lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag‘lari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>

## D

Davlat byudjeti	Davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
-----------------	---

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II–son Qonuni)</i>
Davlat ichki qarzlari	Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II–son Qonuni)</i>
Davlat maqsadli jamg‘armalari	Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II–son Qonuni)</i>
Davlat metrologiya nazorati	Metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari amalga oshiradigan faoliyat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</i>
Davlat sirlari	Davlat tomonidan qo‘riqlanadigan va maxsus ro‘yxatlar bilan chegaralab qo‘yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o‘zga xil ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida» 07.05.1993 yildagi 848-XII – son Qonuni)</i>
Davlat sud eksperti	Davlat sud-ekspertiza muassasasining o‘z xizmat vazifalarini bajarish tartibida sud ekspertizasini o‘tkazuvchi sud eksperti.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida» 01.06.2010 yildagi O‘RQ-249 – son Qonuni)</p>
Davlat tasarrufidan chiqarish	<p>Davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida» 19.11.1991 yildagi 425-XII – son Qonuni)</p>
Davlat tashqi qarzi	<p>1. Davlatning xorijdan mablag‘ jalb qilishi natijasida yuzaga kelgan O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlari yig‘indisi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 263-I – son Qonuni).</p> <p>2. Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II–son Qonuni)</p>
Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish	<p>Aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II–son Qonuni)</p>
Davlat qarzi	Davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</p>
Davlat qimmatli qog‘ozlari	<p>O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergen organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Davlat etalonni	<p>Vakolat berilgan milliy organning qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘lchov birligining o‘lchami sifatida e’tirof etilgan etalon.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</p>
Davlatning xorijdan mablag‘ jalb qilishi	<p>Aktivlarni chet el manbalaridan (xorijiy davlatlar, ularning yuridik shaxslaridan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlari (zayomlari)ni to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlarini yuzaga kelishi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 263-I – son Qonuni)</p>
Depo hisobvarag‘i	<p>Deponentning qimmatli qog‘ozlarini saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig‘indisi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>

Depo hisobvarag‘idan ko‘chirma	<p>Deponentning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, depozitariy tomonidan beriladigan hujjat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 –son Qonuni</i></p>
Depozit sertifikati	<p>Bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonat-chining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 –son Qonuni</i></p>
Depozitar operatsiyalar	<p>Hisobga olish registrlarida depozitariylar tomonidan depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 –son Qonuni</i></p>
Depozitar operatsiyalar standartlari	<p>Depozitar operatsiyalar o‘tkazishning qonun hujjalarda belgilangan tartibda tasdiqlangan me’yorlari va qoidalari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I –son Qonuni)</i></p>
Depozitariyning hisobga olish registrlari	<p>Depozitariyda qimmatli qog‘ozlarni saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish bo‘yicha depozitar operatsiyalar standartlari bilan belgilangan yozuvlar tizimi.</p>

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni</i>
Depozitar shartnoma	<p>Depozitariy bilan deponent o‘rtasida yozma shaklda tuziladigan, qimmatli qog‘ozlarni saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solib turuvchi shartnoma.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i></p>
Deponent	<p>1. Depozitariy bilan qimmatli qog‘ozlarni saqlash va uning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqini hisobga olish haqida shartnoma tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i></p> <p>2. Depozitariyda depo hisobvarag‘iga ega bo‘lgan shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni</i></p>
Diqqatga sazovor joylar	Inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» 30.08.2001 yildagi 269-II – son Qonuni)</i>
Domen nomi	Axborot resursiga yoki axborot tizimiga berilgan, ularni Internet jahon axborot tarmog‘ida identifikasiyalash uchun xizmat qiladigan noyob nom.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I – son Qonuni)</i>
Domen nomlari tizimi	Internet jahon axborot tarmog‘ida domen nomlarini berish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ulardan foydalanish tartibi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I – son Qonuni)</i>
Donor	O‘z qoni va uning tarkibiy qismlaridan bir qismini tibbiyot ehtiyojlari uchun ixtiyoriy ravishda beruvchi jismoniy shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida» 30.08.2002 yildagi 402-II – son Qonuni)</i>
Donor qoni banki	Qon bilan ishslash xizmati tomonidan vujudga keltiriladigan va yangilab boriladigan, uzoq muddat saqlashga mo‘ljallangan donor qoni tarkibiy qismlarining zaxiralari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida» 30.08.2002 yildagi 402-II – son Qonuni)</i>
Donor qoni preparatlari	Donor qoni tarkibiy qismlarini qayta ishslashda olin-gan davolash vositalari.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida» 30.08.2002 yildagi 402-II – son Qonuni)</p>
Donor qoni tarkibiy qismlari	<p>Qonning qon plazmasi va hujayralari shaklidagi tarkibiy qismlari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida» 30.08.2002 yildagi 402-II – son Qonuni)</p>
Dori vositalari	<p>Kelib chiqishi tabiiy va sun’iy bo‘lgan bir yoki bir nechta dori moddalari (substansiyalar) hamda yordamchi moddalar asosida hosil qilingan, kasallikning oldini olish, tashxis qo‘yish va davolash uchun qo‘llashga ruxsat etilgan vositalar. Ular jumlasiga immunobiologik, radiofarmatsevtik va parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik, tashxis qo‘yish va sterilizatsiya vositalari, shuningdek dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun mo‘ljallangan dori moddalari (substansiyalar) kiradi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</p>
Dori vositalarining, tibbiy buyumlarning davlat reestri	<p>Rasmiy hujjat bo‘lib, u tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar ro‘yxatidan iborat.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</p>
Dori moddalari (substansiyalari)	<p>Kelib chiqishi tabiiy va sun’iy bo‘lgan, qo‘llashga ruxsat etilgan biologik faol moddalar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</p>

Dori preparatlari	<p>Dozalangan, idishga joylangan-o‘ralgan, qo‘llashga tayyor dori vositalari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i></p>
Dorixona	<p>Dori vositalarini tayyorlash, qadoqlash, ularning sifatini nazorat qilish, shuningdek davolash hamda kasallikning oldini olishga mo‘ljallangan dori vositalari, tibbiy buyumlarni, sanitariya va gigiena ashyolarini, shifobaxsh oziq-ovqatlarni, ma’danli suvlarni, davolash-kosmetika mahsulotlarini xarid qilish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi tibbiyot muassasasi. Dorixona muassasalari jumlasiga dorixonalar va ularning filiallari, davolash va kasallikning oldini olish muassasalarining dorixonalar kiradi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i></p>
Duragay urug‘liklar	<p>Turkumdoshlarni chatishtirishdan olinadigan urug‘liklar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Urug‘chilik to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 267-I – son Qonuni)</i></p>

## E

Egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlar	<p>Mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o‘z egasining ro‘yxatdan o‘tkazilishini talab etadigan qimmatli qog‘ozlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
--	--

Ekinboplik xususiyati	Urug‘liklarning ekishga qanchalik yaroqli ekanligini bildiruvchi ko‘rsatkichlar majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Urug‘chilik to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 267-I – son Qonuni)</i>
Ekskursiya faoliyati	Turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob’ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ekskursiya etakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarни tashkil etishga doir qismi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i>
Ekspert	Axborot mahsulotini ekspertizadan o‘tkazish va ekspert xulosasini berish yoki axborot mahsulotining yoshga oid tasnifini amalga oshirish uchun maxsus vakolatli davlat organida akkreditatsiyadan o‘tgan shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida» 08.09.2017 yildagi O‘RQ-444 – son Qonuni)</i>
Elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob’ektlari	Elektr energiyasini uzatishni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan elektr uzatish liniyalari, transformator podstansiyalari, taqsimlash punktlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektr energetikasi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-225 – son Qonuni)</i>
Elektr energetikasi	Elektr energiyasini hosil qilish, uzatish, taqsimlash, sotish va iste’mol qilish sohasi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektr energetikasi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-225 – son Qonuni)</i>

Elektr energetikasi ob'ektlari	<p>Elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar, shuningdek elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlari.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida» 30.09.2009 yildagi O'RQ-225 – son Qonuni)</i></p>
Elektr energiyasi	<p>Bir vaqtning o'zida hosil qilinishi va iste'mol qilinishi bilan tavsiflanadigan alohida turdagi tovar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida» 30.09.2009 yildagi O'RQ-225 – son Qonuni)</i></p>
Elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar	<p>Yagona elektr energetikasi tizimiga ulangan statsionar elektr stansiyalari (issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, gidroelektrostansiyalar, shuningdek qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan boshqa elektr stansiyalari).</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida» 30.09.2009 yildagi O'RQ-225 – son Qonuni)</i></p>
Elektromagnit moslashuv	<p>Radioelektron vositalarning ularga radioxalaqitlar ta'sir etib turgan bir vaqtning o'zida mavjud ishlatish sharoitlarida talab darajasidagi sifat bilan ishlay olish qobiliyati.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Radiochastotalar spektri to'g'risida» 25.12.1998 yildagi 725-I – son Qonuni)</i></p>
Elektron davlat xizmati	<p>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida» 09.12.2015 yildagi O'RQ-395 – son Qonuni)</i></p>

Elektron davlat xizmatining reglamenti	Elektron davlat xizmati ko‘rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida» 09.12.2015 yildagi O‘RQ-395 – son Qonuni)</i>
Elektron katalog	Tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro‘yxatining elektron shakli.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida» 13.04.2011 yildagi O‘RQ-280 – son Qonuni)</i>
Elektron kutubxona	Axborot-kutubxona fondining elektron shakli.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida» 13.04.2011 yildagi O‘RQ-280 – son Qonuni)</i>
Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti	Elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo‘yuvchi shaxsnинг o‘ziga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida» 11.12.2003 yildagi 562-II – son Qonuni)</i>
Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti	Elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida» 11.12.2003 yildagi 562-II – son Qonuni)</i>

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash	<p>Elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishliligi va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligi tekshirilgandagi ijobiy natija.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida» 11.12.2003 yildagi 562-II – son Qonuni)</i></p>
Elektron hujjat	<p>Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida» 11.12.2003 yildagi 562-II – son Qonuni)</i></p>
Elektron hukumat	<p>Davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida» 09.12.2015 yildagi O‘RQ-395 – son Qonuni)</i></p>
Elektron hukumatning yagona identifikatorlari	<p>Har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko‘chmas mulk ob’ektlariga, geografik va boshqa ob’ektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikatsiyalash imkonini beruvchi noyob kodlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida» 09.12.2015 yildagi O‘RQ-395 – son Qonuni)</i></p>
Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar	<p>Bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar.</p>

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reestri	<p>Ro‘yxatdan o‘tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining ro‘yxati.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Emitent	<p>Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog‘ozlarning egalari oldida majburiyatları bo‘lgan yuridik shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Emitentning opsoni	<p>Emitentning muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini opsonda ko‘rsatilgan muddatda qat’iy belgilangan narxda sotib olish huquqini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot	<p>Efirga uzatish yoki kabelъ orqali yuborish uchun tashabbus va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan hamda ularni belgilangan tartibda amalga oshiruvchi shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko‘rsatuvi yoki	<p>Efir yoki kabelъ orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning o‘zi tomonidan, shuningdek uning buyurtmasi bo‘yicha va uning mablag‘lari hisobiga boshqa tashkilot tomonidan yaratilgan ko‘rsatuv yoki eshittirish.</p>

eshittirishi	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</i>
Efirga uzatish	<p>Asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini radio yoki televidenie, shu jumladan sun’iy yo‘ldoshlar (kabelъ televideniesi bundan mustasno) orqali uzatish vositasida barchaning e’tibori uchun yuborish. Asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini sun’iy yo‘ldosh orqali efirga uzatish deganda signallarni erdagи stansiyadan sun’iy yo‘ldoshga qabul qilish va sun’iy yo‘ldoshdan signallarni uzatish tushuniladi, ular vositasida asar yoki turdosh huquqlar ob’ektlari, ularni omma amalda qabul qilishidan qat’i nazar, barchaning e’tiboriga etkazilishi mumkin.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</i></p>
E’lon qilish (oshkor qilish, chop etish)	<p>Ommanning oqilona talab-ehtiyojlarini qondirish uchun hamda asarning, fonogrammaning xususiyatidan kelib chiqqan holda asar, fonogramma nusxalarini muomalaga etarli miqdorda chiqarish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 272-I – son Qonuni)</i></p>
EHM uchun yaratilgan dastur	<p>Ob’ektiv shaklda ifodalangan hamda muayyan natija olish maqsadida EHM, EHM shoxobchalari va boshqa kompyuter vositalarining ishlashi uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar va ko‘rsatmalar majmui.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i></p>

EHM uchun yaratilgan dasturni dekompilyasiya qilish	<p>EHM uchun yaratilgan dasturning tarkibiy tuzilishi va kodlanishini o‘rganish maqsadida ob’ekt kodini boshlang‘ich matnga aylantirishni o‘z ichiga ola-digan texnikaviy usul.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i></p>
EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma’lumotlar bazasining adaptatsiyasi	<p>Yuzaga kelgan muayyan sharoitda EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma’lumotlar bazasining ishla-shini ta’minlash maqsadidagina amalga oshiri-ladigan hamda (dekompilyasiya qilish oqibatida) muallifning boshlang‘ich matni o‘zgarishiga olib kelmaydigan qo‘sishimchalar kiritish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i></p>
EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma’lumotlar bazasini modifikatsiyalash (gayta ishlash)	<p>Ularni adaptatsiya deb hisoblanmaydigan va boshlang‘ich matn o‘zgarishiga olib keladigan har qanday tarzda o‘zgartirish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i></p>
EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma’lumotlar bazasidan nusxa olish	<p>EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma’lumotlar bazasini har qanday moddiy shaklda bitta yoki ko‘proq nusxada tayyorlash hamda ularni EHMning xotirasiga yozish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i></p>

EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasini tarqatish	<p>EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasining har qanday moddiy shaklda, shu jumladan tarmoqlar vositasida va boshqa usullar yordamida, shuningdek sotish, prokatga berish, ijara ga topshirish, qarzga berib turish, jumladan ushbu maqsadlarning istalgani uchun import qilish yo'li bilan olingan nusxalaridan foydalanishni ta'minlash.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i></p>
EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasini bosib chiqarish (e'lon qilish)	<p>EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasining nusxalarini muallifning roziligi bilan nomuayyan shaxslar doirasiga berish (shu jumladan EHM xotirasiga yozish va bosma matn chiqarish yo'li bilan berish).</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i></p>

## F

Favqulodda vaziyat	<p>1. Muayyan hududdagi avariyyaga olib kelishi mumkin bo'lgan, shuningdek gidrotexnika inshootining avariysi natijasida vujudga kelgan bo'lib, odamlar qurban bo'lishiga, odamlar sog'lig'iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar etkazilishiga, jiddiy moddiy talafotlarga va odamlarning hayot faoliyat sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan vaziyat.</p>
--------------------	--

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida» 20.08. 1999 yildagi 826-I – son Qonuni)</p> <p>2. Odamlar qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof-muhitga zarar etishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat.</p>
	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida» 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458 – son Qonuni)</p>
Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish	<p>Favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda o‘tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan zonalarning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta’sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar kompleksi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 824-I – son Qonuni)</p>
Favqulodda vaziyatlarning oldini olish	<p>Oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 824-I – son Qonuni)</p>

Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi	O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida» 25.05.2000 yildagi 71-II – son Qonuni)</i>
Farmakologik vositalar	Belgilangan farmakologik faollikka ega bo‘lib, klinik sinov ob’ektlari hisoblanadigan muayyan dorivor shaklidagi moddalar yoki moddalar aralashmasi;  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i>
Farmakopeya	Dori vositalari sifatini, ularni tayyorlash, sifat-miqdor jihatidan nazorat qilishni, saqlash shart-sharoitlarini va nomlanishini belgilaydigan davlat standartlari to‘plami.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i>
Farmakopeya maqolasi	Dori vositasi uchun farmakopeya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan normativ-texnik hujjat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i>
Farmakopeya qo‘mitasi	Dori vositalari, tibbiy buyumlar sifatiga va ularni nazorat qilish usullariga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan normativ-texnik hujjatlarni tasdiqlovchi rasmiy ekspert organi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i>

Farmatsevtik faoliyat	Dori vositalarini, tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha izlanishlarni, tadqiqotlarni, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, sifatini nazorat qilish, standartlash, ro'yxatdan o'tkazish, saqlash, axborot berish, etkazib berish va realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i>
Fitosanitariya nazorati	Zararli organizmlar va ular tabiiy kushandalarining tarqalishi, shuningdek ularning rivojlanish sur'ati va zararlilik darajasini kuzatib borish hamda aniqlash.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida" 31.08.2000 yildagi 116-II – son Qonuni)</i>
Foydalanuvchi	Pochta aloqasi xizmatidan foydalanuvchi, ya'ni pochta aloqasi xizmatlarining iste'molchisi hisoblangan yuridik yoki jismoniy shaxs.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Pochta aloqasi to'g'risida" 31.08.2000 yildagi 118-II–son Qonuni)</i>
Foydalanuvchi tashkilot	Tasarrufida (balansida) gidrotexnika inshooti bo'lган korxona, muassasa va tashkilot.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" 20.08.1999 yildagi 826-I – son Qonuni)</i>
Foydalanuvchilar	Garov reestrini yurituvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma asosida garov reestriga yozuv kiritish huquqiga ega bo'lgan kreditor, qarzdor sifatida qatnashayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek qonunga muvofiq mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishni cheklab qo'yish huquqiga ega bo'lgan tergov hamda surishtiruv organlari, davlat soliq va bojxona xizmati organlari.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Garov reestri to‘g‘risida» 23.10.2013 yildagi O‘RQ-356 – son Qonuni)</p>
Fond birjasি	<p>Ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtida va belgilangan joyda o‘rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o‘tkazish orqali faqat qimmatli qog‘ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Fonogramma	<p>1. Biron-bir ijro yoki boshqa ovozlarning har qanday mutlaqo ovozli yozuvi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 272-I – son Qonuni).</p> <p>2. Biron-bir ijroning, boshqa ovozlarning har qanday mutlaqo ovozli yozuvi, audiovizual asarga kiritilgan ovozli yozuv bundan mustasno.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Fonogramma nusxasi	<p>Har qanday moddiy jismdagi, fonogrammadan bevosita yoki bilvosita tayyorlangan va shu fonogrammada qayd etilgan ovozlarning hammasini yoxud bir qismini qamrab olgan fonogramma ko‘chirmasi;</p> <p>(“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Fonogramma nusxasi	Fonogrammadan bevosita yoki bilvosita tayyorlangan va shu fonogrammaga jo bo‘lgan ovozlarning hammasini yoki bir qismini qamrab olgan har

	<p>qanday moddiy jismdagi fonogramma ko‘chirmasi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 272-I – son Qonuni)</p>
Fonogrammani tayyorlovchi	<p>Ijroning yoki boshqa ovozlarning birinchi ovozli yozuvi uchun tashabbus va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 272-I – son Qonuni)</p>
Fuqaro muhofazasi kuchlari	<p>Qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun tuziladigan fuqaro muhofazasi harbiy qismlari, umumiy va maxsus hududiy, funksional va ob’ekt tuzilmalari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik muhofazasi to‘g‘risida» 26.05.2000 yildagi 80-II – son Qonuni)</p>
Fuqaro muhofazasi xizmati	<p>Fuqaro muhofazasi axsus tadbirlarini bajarish, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining harakatlarini ta’minlash uchun kuchlar va vositalarni tayyorlash maqsadida tuzilgan funksional bo‘linmalar majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik muhofazasi to‘g‘risida» 26.05.2000 yildagi 80-II – son Qonuni)</p>

## G

Garovga ushlab turilgan shaxs	Qo‘lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyyati va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek ayrim shaxslarni biron-bir harakat sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan
-------------------------------	---

	<p>tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo‘lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida» 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>
Generik dori vositalari (generiklar)	<p>Patent berilganlaridan qolishmaydigan, lekin boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan tayyorlangan dori preparatlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i></p>
Genetik sifat (nav sifati)	<p>Muayyan nav urug‘likning genetik (nav) jihatidan qanchalik toza ekanligini bildiruvchi ko‘rsatkichlar majmui.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Urug‘chilik to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 267-I – son Qonuni)</i></p>
Genofond (kam sonli) zot	<p>Muayyan zotga mansub va yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi kam uchraydigan hayvonlar guruhi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Naslchilik to‘g‘risida» 21.12.1995 yildagi 165-I – son Qonuni)</i></p>
Geografik ob’ektlar	<p>Erning hozirda yoki o‘tmishda mavjud bo‘lgan hamda muayyan o‘rnashgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun’iy bo‘lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma’muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi ob’ektlari (temir yo‘l stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko‘priklar, raz’ezdlar, yo‘llar, kanallar,</p>

	<p>suv omborlari, to‘g‘onlar, dambalar); tabiiy ob’ektlar (daryolar, ko‘llar, muzliklar, tekisliklar, tog‘lar, tog‘ tizmalari, g‘orlar, cho‘llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag‘irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi ob’ektlar kiradi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida» 12.10.2011 yildagi O‘RQ-303 – son Qonuni)</i></p>
Geografik ob’ektlarning nomlari	<p>Geografik ob’ektlarning ularni farqlash va aniqlash uchun foydalaniladigan o‘z nomlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida» 12.10.2011 yildagi O‘RQ-303 – son Qonuni)</i></p>
Geografik ob’ektning nomini belgilash	<p>Yanada normallashtirish maqsadida geografik ob’ektning nomini aniqlash.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida» 12.10.2011 yildagi O‘RQ-303 – son Qonuni)</i></p>
Geografik ob’ektning nomini normallashtirish	<p>Geografik ob’ektning eng ko‘p foydalaniladigan va eng maqbul nomini tanlash, ushbu nom yoziladigan shaklini belgilash hamda tasdiqlash.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida» 12.10.2011 yildagi O‘RQ-303 – son Qonuni)</i></p>
Geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi	<p>O‘zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi (O‘zbekiston Respublikasi Ergeodezkadastr davlat qo‘mitasi).</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida» 12.10.2011 yildagi O‘RQ-303 – son Qonuni)</i></p>

Geografik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning davlat ekspertizasi	<p>Geografik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Ergeodezkadastr davlat qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan toponimik, etnografik, lingvistik, kartografiq va boshqa tadqiqotlar majmui.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida" 12.10.2011 yildagi O'RQ-303 – son Qonuni)</i></p>
Gid (ekskursiya etakchisi)	<p>Tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya-axborot, tashkiliy yo'sindagi xizmatlar va malakali yordam ko'rsatuvchi jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i></p>
Gidrotexnika inshooti avariysi xavfining yo'l qo'yiladigan darajasi	<p>Gidrotexnika inshooti avariysi xavfining normativ hujjatlar bilan belgilangan qiymati.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" 20.08.1999 yildagi 826-I – son Qonuni)</i></p>
Gidrotexnika inshootlari	<p>To'g'onlar (plotinalar), gidroelektr stansiyalar binolari, suv tashlash, suv bo'shatish, suv o'tkazish va suv chiqarish inshootlari, tunnellar, kanallar, nasos stansiyalari, suv omborlari qirg'oqlarini, daryolar va kanallar o'zanlarining qirg'oqlari va tubini toshqin hamda emirilishlardan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan inshootlar, sanoat va qishloq xo'jaligi tashkilotlarining suyuq chiqindilar saqlanadigan joylarini o'rab turuvchi inshootlar (ko'tarmalar).</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" 20.08.1999 yildagi 826-I – son Qonuni)</i></p>

Gidrotexnika inshootining xavfsizligi deklaratsiyasi	Gidrotexnika inshootining xavfsizligi asoslab beriladigan hujjat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 826-I – son Qonuni)</i>
Gidrotexnika inshootining xavfsizligi mezonlari	Gidrotexnika inshooti holatining va undan foydalananish shartlarining gidrotexnika inshooti avariysi xavfining yo‘l qo‘yiladigan darajasiga muvofiq miqdor va sifat ko‘rsatkichlarining cheklangan qiymatlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 826-I – son Qonuni)</i>
Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi	Gidrotexnika inshootlarining odamlar hayoti, sog‘lig‘i va qonuniy manfaatlarini, atrof tabiiy muhit va xo‘jalik ob’ektlarini muhofaza qilishni ta’minlash imkonini beruvchi holati.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 826-I – son Qonuni)</i>
Giyohvandlik (narkomaniya)	Giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog‘liq kasallik.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</i>
Giyohvandlik (narkotik) vositalari	Giyohvandlik vositalari ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan preparatlar va o‘simliklar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</i>

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari	<p>Kimyoviy tuzilishi va xossalariiga ko‘ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o‘xshash, ular singari ruhiyatga faol ta’sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</i></p>
Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi	<p>Giyohvandlik vositalari, — psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o‘tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo‘natish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo‘q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan o‘smliklarni etishtirish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</i></p>
Gomeopatik vositalar	<p>Gomeopatik qoidalarga binoan qo‘llaniladigan va davlat reestrining maxsus bo‘limiga kiritilgan dorilar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i></p>
Guvochnoma	<p>Depo hisobvarag‘idan ko‘chirma bo‘lib, deponentning tegishli huquqlarini tasdiqlaydi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i></p>
Guvochnomaga egalik qiluvchi	<p>Seleksiya yutug‘ining egasi bo‘lib, uning mulk huquqi guvochnomaga asoslanadi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 270-I – son Qonuni)</i></p>

# H

Havfli chiqindilar	<p>Tarkibida xavfli (zaharlilik, yuqumlilik, portlovchanlik, tez alangalanib yong‘in chiqaruvchanlik, reaksiyaga tez kirishuvchanlik, radioaktivlik) xususiyatlardan loaqal bittasiga ega moddalar mavjud bo‘lgan, bunday moddalar fuqarolar sog‘lig‘i va hayotiga, atrof-muhitga o‘zi mustaqil tarzda ham, shuningdek boshqa moddalarga qo‘shilganda ham bevosita yoki potensial xavf tug‘diradigan miqdorda va shaklda mavjud bo‘lgan chiqindilar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘-risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</i></p>
Haydovchi	<p>Transport vositasini boshqaruvchi shaxs. Transport vositasini boshqarish o‘rgatilayotganda o‘rgatuvchi shaxs haydovchi hisoblanadi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish to‘g‘risida» 21.04.2008 yildagi O‘RQ-155I – son Qonuni)</i></p>
Harbiy mojaro	<p>Davlatlar o‘rtasidagi yoki davlatning ichki qaramaqarshiliklarini harbiy kuch qo‘llagan holda hal etish shakli bo‘lib, bu qurolli kurash olib borishning barcha turlarini, shu jumladan urushlar va qurolli mojarolarni qamrab oladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida» 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458 – son Qonuni)</i></p>
Harbiy mol-mulk	<p>Qurolli kuchlarning shaxsiy tarkibi turmush faoliyatini ta’minlash tizimlari, maxsus maqsaddagi materiallar va ularni ishlab chiqarish uchun maxsus uskunalar, ommaviy qirg‘in quroolidan umumiylar va yakka tartibda himoyalanish vositalari, ommaviy qirg‘in qurolini qo‘llash</p>

	<p>oqibatlarining oldini olish va davolash vositalari, front orqasida qo'llaniladigan maxsus uskunalar, xarbiy kiyim va unga xos atributlar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to 'g'risida» 11.05.2001 yildagi 213-II – son Qonuni)</i></p>
Harbiy tajovuz	<p>O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va davlat mustaqilligiga qarshi harbiy kuchni qo'llash.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to 'g'risida» 09.01.2018 yildagi O'RQ-458 – son Qonuni)</i></p>
Harbiy tarkib	<p>Xorijiy davlatlar harbiy tuzilmalarining shaxsiy tarkibi va harbiy xodimlari, shuningdek shu davlatlarda harbiy xizmatga chaqirilgan yoki zaxiraga bo'shatilayotgan shaxslar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to 'g'risida» 11.05.2001 yildagi 213-II – son Qonuni)</i></p>
Harbiy havfsizlik	<p>Milliy manfaatlarning harbiy sohada davlat xavfsizligiga bo'lgan tahidlardan himoyalanganlik holati.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to 'g'risida» 09.01.2018 yildagi O'RQ-458 – son Qonuni)</i></p>
Himoya inshootlari	<p>Aholini va ishlab chiqarish xodimlarini zamонавиyo qирғиin vositalaridan muhofaza qilishga maxsus mo'ljallangan muhandislik inshootlari majmui.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik muhofazasi to 'g'risida» 26.05.2000 yildagi 80-II – son Qonuni)</i></p>

Homiylar	<p>Homiylikni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Homiylik to‘g‘risida» 02.05.2007 yildagi O‘RQ-96 – son Qonuni)</i></p>
Homiylik (homiylik faoliyati)	<p>1.Yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik maqsadlarida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan pul mablag‘larini qaytarmaslik sharti bilan yoki imtiyozli shartlarda berishda, ular uchun ishlar bajarishda, ularga xizmatlar ko‘rsatish va ularni boshqacha shaklda qo‘llab-quvvatlashda ifodalanadigan ixtiyoriy beg‘araz yordami (faoliyati).</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Homiylik to‘g‘risida» 02.05.2007 yildagi O‘RQ-96 – son Qonuni)</i></p> <p>2. O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan etim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta’minot, tarbiya va ta’lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o‘z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga etgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko‘ra homiylik belgilanishi mumkin.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida» 02.01.2014 yildagi O‘RQ-364 – son Qonuni)</i></p>
Homiylik oluvchilar	<p>Homiylik oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Homiylik to‘g‘risida» 02.05.2007 yildagi O‘RQ-96 – son Qonuni)</i></p>

Homiylik sub'ektlari	Homiylar, ko'ngillilar, homiylik tashkilotlari, shuningdek homiylik oluvchilar.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Homiylik to'g'-risida» 02.05.2007 yildagi O'RQ-96 – son Qonuni)</i>
Homiylik tashkiloti	Jamiyatning, ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab homiylik faoliyatini amalga oshirish uchun tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Homiylik to'g'-risida» 02.05.2007 yildagi O'RQ-96–son Qonuni)</i>
Homiylik xayriyalari	Homiylik maqsadlariga yo'naltiriladigan molmulk, shu jumladan pul mablag'lari.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Homiylik to'g'-risida» 02.05.2007 yildagi O'RQ-96–son Qonuni)</i>
Hujjatlashtirilgan axborot	Identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</i>
Huquq egalari	1. Muallif, uning merosxo'rlari, shuningdek qonun yoki shartnomaga asosida mutlaq shaxsiy va mulkiy huquqlarga ega bo'lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida» 02.09.1993 yildagi 918-XII – son Qonuni)</i>  2. Integral mikrosxema topologiyasining muallifi, uning merosxo'ri, shuningdek integral mikrosxema topologiyasidan foydalanish mulkiy huquqlarini qonunga yoki shartnomaga asosan olgan va ularga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Integral mikro-sxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida» 12.05.2001 yildagi 218-II – son Qonuni).</p> <p>3. Mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo‘rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo‘rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek shartnomada yoki ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asos bo‘yicha asarlardan yoxud turdosh huquqlar ob’ektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Huquqbuzarlik	<p>Sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik).</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida» 14.05.2014 yildagi O‘RQ-371 – son Qonuni)</p>
Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi	<p>Jismoniy, ma’naviy yoki mulkiy zarar etkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida» 14.05.2014 yildagi O‘RQ-371 – son Qonuni)</p>
Huquqbuzarliklar profilaktikasi	<p>Huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiyl, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining</p>

	<p>huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida» 14.05.2014 yildagi O‘RQ-371 – son Qonuni)</i></p>
Huquqiy axborot	<p>Normativ-huquqiy hujjatlarning, ularga oid rasmiy sharhlarning, normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish tartibi to‘g‘risidagi tushuntirishlarning, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonun hujjatlari qo‘llanilishi masalalari bo‘yicha qarorlarining matnlari, shuningdek sud amaliyotini umumlashtirish materiallari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida» 07.09.2017 yildagi O‘RQ-443 – son Qonuni)</i></p>
Huquqiy axborotdan foydalanish	<p>Huquqiy axborotni erkin olish va undan foydalanish imkoniyati.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida» 07.09.2017 yildagi O‘RQ-443 – son Qonuni)</i></p>
Huquqiy axborotni tarqatish	<p>Nomuayyan doiradagi shaxslarni huquqiy axborot bilan tanishtirishga qaratilgan harakatlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida» 07.09.2017 yildagi O‘RQ-443 – son Qonuni)</i></p>

# I

Idoraviy arxiv	<p>Yuridik shaxsning arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linmasi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</p>
Idoralararo elektron hamkorlik qilish	<p>Davlat organlari o‘rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ma’lumotlar almashish.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida» 09.12.2015 yildagi O‘RQ-395 – son Qonuni)</p>
Ijro	<p>Asarni (shu jumladan xalq ijodiyoti asarini), fonogrammani, ijroni, sahna asarini o‘yin, ifodali o‘qish, kuylash, raqsga tushish orqali jonli ijro yoki texnika vositalari yordamida takdim etish.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Ijrochi	<p>1. Aktyor, qo‘sishiqchi, musiqachi, raqqos yoki rolъ o‘ynaydigan, o‘qiydigan, ifodali o‘qiydigan, musiqa asbobini chaladigan yoxud adabiyot yoki san’at asarini (shu jumladan estrada, ssirk yoki qo‘g‘ir-choqli nomerni) boshqa bir tarzda ijro etadigan shaxs, shuningdek spektaklning sahnalaشتiruvchi rejissyori va dirijyori.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 272-I – son Qonuni)</p> <p>2. Maishiy xizmat, uy-joy-kommunal, ta’mirlash-qurilish, transport xizmati va xizmat ko‘rsatishning boshqa sohalarida shartnomaga bo‘yicha iste’molchi</p>

	<p>uchun ishlar bajaradigan yoki xizmatlar ko‘rsatadigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilar-ning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i></p>
Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmagan	<p>Voyaga etmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta’minalash, tarbiyalash va unga ta’lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbazarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga etmagan.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida» 29.09.2010 yildagi O‘RQ-263 – son Qonuni)</i></p>
Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oila	<p>Ota-onada yoki ota-onada o‘rnini bosuvchi shaxslar voyaga etmaganlarni ta’minalash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan oila.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida» 29.09.2010 yildagi O‘RQ-263 – son Qonuni)</i></p>
Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish	<p>Huquqbazarlikdan jabrlanuvchiga, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbazarlik sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagи yordam ko‘rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.</p>

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzar-liklar profilaktikasi to‘g‘risida» 14.05.2014 yildagi O‘RQ-371 – son Qonuni)</p>
Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar	<p>Yuzaga kelgan holatlar sababli og‘ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>nogiron bolalar;</li> <li>jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar;</li> <li>etim bolalar;</li> <li>ota-onha qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar;</li> <li>ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar;</li> <li>kam ta’minlangan oilalardagi bolalar;</li> <li>jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar;</li> <li>zo‘ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar.</li> </ul> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida» 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139 – son Qonuni)</p>
Investitsiya aktivlari	<p>Qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari va qonun hujjalariiga muvofiq investitsiya aktivlari deb e’tirof etiladigan boshqa mol-mulk.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni</p>
Investitsiya faoliyati	<p>Investitsiya faoliyati sub’ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida» 24.12.1998 yildagi 719-I – son Qonuni)</p>

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi	Investorning buyurtmalarni bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati sub'ekti.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida" 24.12.1998 yildagi 719-I – son Qonuni)</i>
Investitsiyalar	Iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida" 24.12.1998 yildagi 719-I – son Qonuni)</i>
Investor	<p>1. O'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub'ekti.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida" 24.12.1998 yildagi 719-I – son Qonuni)</i></p> <p>2. Qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" 22.07.2008 yildagi O'RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Industrial radioxalaqitlar	Radioto'lqinlarni uzatish uchun mo'ljallanmagan texnik vositalar tomonidan vujudga keladigan radiochastota spektri diapazonidagi elektromagnit tarqatishlar.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota-lar spektri to'g'risida" 25.12.1998 yildagi 725-I – son Qonuni)</i>

Inspeksiya nazorati	<p>Mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida” 04.10.2013 yildagi O‘RQ-354 – son Qonuni)</i></p>
Inspeksiya organi	<p>Yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani va inspeksiya nazoratini o‘tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida” 04.10.2013 yildagi O‘RQ-354 – son Qonuni)</i></p>
Insofsiz raqobat	<p>1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qo‘lga kiritishga qaratilgan, qonun hujjalariiga va ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan, ular o‘rtasida musobaqalashuvni istisno etadigan va amalga oshirilishi natijasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga tegishli tovar bozorida tovarlar muomalasining umumiyligi shart-sharoitlariga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradigan harakatlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I–son Qonuni).</i></p> <p>2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzallikkarga ega bo‘lishga qaratilgan, qonun hujjalariiga, ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga (raqobatchilarga) zarar etkazadigan yoki zarar etkazishi mumkin bo‘lgan yoxud ularning ishchanlik obro‘siga putur etkazadigan yoki putur etkazishi mumkin bo‘lgan harakatlari.</p>

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</p>
Integral mikrosxema topologiyasi	<p>Integral mikrosxema elementlarining va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar majmuining moddiy jismda qayd etilgan fazoviy-geometrik joylashuvi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida» 12.05.2001 yildagi 218-II – son Qonuni)</p>
Ionlashtiruvchi nurlanish	<p>Radioaktiv parchalanishda, yadroviy evrilishlarda, moddadagi zaryadlangan zarralar harakatining sekinlashuvida hosil bo‘ladigan hamda muhit bilan o‘zaro ta’sir etish chog‘ida har xil qutbli ionlarni hosil qiladigan nurlanish.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</p>
Ionlashtiruvchi nurlanish manbai	<p>O‘zidan ionlashtiruvchi nurlanish chiqaruvchi yoki chiqarishga qodir bo‘lgan qurilma va (yoki) radioaktiv modda.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</p>
Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar	<p>Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini qazib oluvchi, ishlab chiqaruvchi, hosil qiluvchi, qayta ishlovchi, ulardan foydalanuvchi, ularni saqlovchi, ularga xizmat ko‘rsatuvchi, ularni tashuvchi, zararsizlantiruvchi, utilizatsiya qiluvchi va ko‘mib tashlovchi yuridik va jismoniy shaxslar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</p>

Iste'molchi	Foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lman holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs).  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar-ning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i>
Ish beruvchi	1. Seleksiya yutug'ini yaratish to'g'risida topshiriq bergen va bu topshiriq bajarilishini pul bilan ta'minlaydigan jismoniy yoki yuridik shaxs.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to'g'risida» 30.08.1996 yildagi 270-I–son Qonuni).</i>  2. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs;  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» 16.04.2009 yildagi O'RQ-210 – son Qonuni)</i>
Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi	Umumiyligida sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» 16.04.2009 yildagi O'RQ-210 – son Qonuni)</i>
Ish yuritish	Yuridik shaxsning hujjatlashtirish va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha faoliyatini ta'minlab beruvchi jarayon.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida» 15.06.2010 yildagi O'RQ-252 – son Qonuni)</i>

Ishlab chiqaruvchi	<p>Iste'molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar-ning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i></p>
Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa	<p>Xodimning u mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha o'z vazifalarini ish beruvchining hududida ham, undan tashqarida ham bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruriyatini keltirib chiqargan, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» 16.04.2009 yildagi O'RQ-210 – son Qonuni)</i></p>
Iqtisodiyot tarmog'i	<p>O'zbekiston Respublikasining o'xhash tovar ishlab chiqaruvchilarining barchasi yoki O'zbekistonda shunday tovar ishlab chiqarish umumiylajmi ulushi asosiy qismni tashkil etadigan ishlab chiqaruvchilarning jami.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza chorallari, antidemping va kompensatsiya bojlari to'g'risida» 11.12.2003 yildagi 554-II – son Qonuni)</i></p>
Iqtisodiyot tarmog'iga etkazilayotgan jiddiy zarar	<p>O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga tovar importi ko'payganligi, demping narxlaridagi tovar importi yoki subsidiya bilan ta'minlangan tovar importi oqibatida iqtisodiyot tarmog'ining ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy ko'rsatkichlari sezilarli darajada pasayganligi yoxud iqtisodiyot tarmog'i rivojlanishida sur'at sezilarli darajada susayganligi.</p>

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza chorallari, antidemping va kompensatsiya bojlari to‘g‘risida» 11.12.2003 yildagi 554-II – son Qonuni)</i>
Iqtisodiyot tarmog‘iga jiddiy zarar etkazilishi xavfi	Iqtisodiyot tarmog‘iga jiddiy zarar etkazilishi muqarrar ekanligining dalillar bilan tasdiqlanganligi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza chorallari, antidemping va kompensatsiya bojlari to‘g‘risida» 11.12.2003 yildagi 554-II – son Qonuni)</i>
Iqtisodiy konsentratsiya	Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta’sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni sodir etish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</i>
Iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish	Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar harakatlarini bunday xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan birortasi bilan ham bir shaxslar guruhiga kirmaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs bilan kelishib olish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</i>

## J

Jabrlanuvchi	1.Transport vositasi boshqa shaxs tomonidan foydalilanilayotganda hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) molmulkiga zarar etkazilgan shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositallari egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta</i>
--------------	---

	<p><i>qilish to ‘g‘risida» 21.04.2008 yildagi O‘RQ-155I – son Qonuni)</i></p> <p>2. O‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan sog‘lig‘iga zarar etkazilgan, sug‘urta tovonini olish huquqiga ega bo‘lgan xodim.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to ‘g‘risida» 16.04.2009 yildagi O‘RQ-210 – son Qonuni)</i></p> <p>3. Sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga zarar etkazilgan, sug‘urta tovoni olish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiyf sug‘urta qilish to ‘g‘risida» 26.05.2015 yildagi O‘RQ-386 – son Qonuni)</i></p>
Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bola	<p>Nogironlikni belgilash uchun etarli bo‘lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bola.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to ‘g‘risida» 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139 – son Qonuni)</i></p>
Joriy valyuta operatsiyalari	<p>Mollarni eksport va import qilish, valyuta boyliklarining oldi-sotdisi bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, intellektual mulkka bo‘lgan huquqni ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq, hisob-kitoblari to‘lov muddatini kechiktirmaslik sharti bilan amalga oshiriladigan, zayom mablag‘lari berilishi yoki jalb etilishini nazarda tutmaydigan operatsiyalar;</p> <p>bank omonatlari, kreditlari, investitsiyalar va boshqa moliya operatsiyalaridan foizlar, dividendlar</p>

	<p>hamda o‘zga daromadlarni xorijga va xorijdan o‘tkazish;</p> <p>savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan mablag‘larni, shu jumladan ish haqi, pensiya, aliment, meros pullarni o‘tkazish, shuningdek shunga o‘xhash boshqa operatsiyalar kiradi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» 07.05.1993 yildagi 841-XII – son Qonuni)</i></p>
--	--

## K

Kabelъ orqali yuborish	<p>Asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini kabel, sim yoki shunga o‘xhash vositalar yordamida barchaning e’tibori uchun yuborish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</i></p>
Kamera	<p>Maxsus qabulxonada joylashgan, ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash uchun mo‘ljallangan xona.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida» 09.01.2017 yildagi O‘RQ-420 – son Qonuni)</i></p>
Kamsituvchi shartlar	<p>1.Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonaning iste’-molchilarga shartnomaga mohiyatiga daxli bo‘lmagan turli shartlarni majburan qabul qildirishi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</i></p> <p>2. Tovar yoki moliya bozoriga kirish, tovarni ishlab chiqarish, iste’mol qilish, olish, realizatsiya qilish,</p>

	<p>o‘zgacha tarzda boshqa shaxsga o‘tkazish shartlari (sharoitlari) bo‘lib, ular boshqa teng shartlarda (sharoitlarda) bitta yoki bir nechta xo‘jalik yurituvchi sub’ektni o‘zga xo‘jalik yurituvchi sub’ekt (raqobatchi) bilan taqqoslaganda teng bo‘lmagan holatga solib qo‘yadi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</i></p>
Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari	<p>Investitsiyalar, shu jumladan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish;</p> <p>kreditlar berish va olish;</p> <p>mablag‘larni jalb etish hamda ularni schyotlarga va omonatlarga qo‘yish;</p> <p>to‘lovlar amalga oshiriladigan yoki egalik huquqi muayyan muddatdan keyin valyuta boyliklariga o‘tadigan moliyaviy operatsiyalar kiradi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» 07.05.1993 yildagi 841-XII – son Qonuni)</i></p>
Kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasi	<p>Kasbga oid mehnat qobiliyatining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berguniga qadar bo‘lgan, foizlarda ifodalangan, tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan aniqlanadigan pasayishi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida» 16.04.2009 yildagi O‘RQ-210 – son Qonuni)</i></p>
Kassa cheki	<p>Tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to‘langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to‘langan sana va kassa apparatining nomeri ko‘rsatilgan hujjat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i></p>

Kelishib olingan harakatlar	Tovar yoki moliya bozorida ikki yoki undan ortiq xo‘jalik yurituvchi sub’ektning bozorning mazkur ishtirokchilaridan har birining manfaatlarini qanoatlantiradigan va ulardan har biriga oldindan ma’lum bo‘lgan, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</i>
Kelishuv	Ikki va undan ortiq taraflarning raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan, hujjatda yoki bir nechta hujjatda aks etgan yozma shakldagi shartlashuvi, shuningdek og‘zaki shakldagi shartlashuvi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</i>
Kompensatsiya	Uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash uchun fuqarolarga yordam tariqasida davlat tomonidan beriladigan pul mablag‘lari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Davlat uy-joy siyosatining asoslari to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 351-I – son Qonuni)</i>
Kompensatsiya to‘lovleri	Majburiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta to‘lovini amalga oshirish mumkin bo‘limgan hollarda, jabrlanuvchilarning hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) molmulkiga etkazilgan zararning o‘rnini qoplash hisobiga amalga oshiriladigan to‘lovlar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish to‘g‘risida» 21.04.2008 yildagi O‘RQ-155I – son Qonuni)</i>
Korporativ obligatsiyalar	Aksiyadorlik jamiyatlari va o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni</i>
Korporativ qimmatli qog‘ozlar (bundan buyon matnda qimmatli qog‘ozlar deb yuritiladi)	Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan naqd yoki naqd bo‘lмаган holda chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i>
Korrupsiya	Shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy nafolish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida» 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419 – son Qonuni)</i>
Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik	Korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida» 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419 – son Qonuni)</i>
Kredit axboroti almashinushi	Kredit byurosi, kredit axboroti sub’ekti, kredit axborotini etkazib beruvchi va kredit axborotidan foydalanuvchining kredit tarixini shakllantirish hamda kredit hisobotini taqdim etish maqsadida kredit axborotini yig‘ish, unga ishlov berish, uni tahlil qilish, saqlash, taqdim etish, undan foydalanish va kredit axborotini himoya qilish borasidagi hamkorligi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Kredit axborot almashinushi to‘g‘risida» 04.10.2011 yildagi O‘RQ-301 – son Qonuni)</i>

Kredit axboroti sub'ekti	Kredit bitimi bo'yicha tegishincha qarz oluvchi (qarzdor), lizing oluvchi, kafil, kafolat beruvchi, garovga qo'yuvchi, shuningdek sug'urtalovchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Kredit axborot almashinuvi to'g'risida» 04.10.2011 yildagi O'RQ-301 – son Qonuni)</i>
Kredit axborotini etkazib beruvchi	Kredit axborotini kredit byurosiga taqdim etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Kredit axborot almashinuvi to'g'risida» 04.10.2011 yildagi O'RQ-301 – son Qonuni)</i>
Kredit axborotidan foydalanuvchi	Kredit bitimi bo'yicha tegishincha kreditor, lizing beruvchi, garovga oluvchi, shuningdek sug'urta qildiruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Kredit axborot almashinuvi to'g'risida» 04.10.2011 yildagi O'RQ-301 – son Qonuni)</i>
Kredit beruvchi	Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha aktivlar bergan yoki aktivlar berish niyatida bo'lgan xorijiy davlat yoki norezident (xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari). Agar norezidentlar bir nechta bo'lsa, u holda kreditorlar guruhidagi vakolatli boshqaruvchi vazifasini bajaruvchi norezident kredit beruvchi hisoblanishi mumkin.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida» 29.08.1996 yildagi 263-I – son Qonuni)</i>
Kreditor	Qarzdordan o'zining majburiyatlari bajarilishini talab qilish, majburiyatlar bajarilmagan hollarda esa - majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash vositasi

	<p>sifatida berib qo‘yilgan qarzdorning mol-mulki hisobiga o‘z talablarining imtiyozli ravishda qanoatlantirilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Garov reestri to‘g‘risida» 23.10.2013 yildagi O‘RQ-356 – son Qonuni)</i></p>
Kuzatuv zonası	<p>Radiatsiyaviy monitoring o‘tkaziladigan sanitariya-muhofaza zonasidan tashqaridagi hudud.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</i></p>
Ko‘ngillilar	<p>Homiylik oluvchining yoxud homiylik tashkilotining manfaatlarini ko‘zlab bepul ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish shaklidagi homiylikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Homiylik to‘g‘risida» 02.05.2007 yildagi O‘RQ-96 – son Qonuni)</i></p>

## L

Litsenziar	<p>Seleksiya yutug‘iga taalluqli himoya hujjatining egasi bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 270-I – son Qonuni)</i></p>
Litsenziat	<p>1.Litsenziardan seleksiya yutug‘idan litsenziya shartnomasi asosida foydalanish huquqini olgan jismoniy yoki yuridik shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 270-I – son Qonuni).</i></p>

	<p>2. Faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida» 25.05.2000 yildagi 71-II – son Qonuni)</i></p>
Litsenziya	<p>Litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq).</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida» 25.05.2000 yildagi 71-II – son Qonuni)</i></p>
Litsenziya talablari va shartlari	<p>Faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziyat tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan, qonun hujjalarda belgilangan talablar va shartlarning majmui.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida» 25.05.2000 yildagi 71-II – son Qonuni)</i></p>
Litsenziya shartnomasi	<p>Faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziyatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da‘vogari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o‘rtasida tuziladigan shartnoma.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida» 25.05.2000 yildagi 71-II – son Qonuni)</i></p>
Litsenziyalar reestri	Berilgan, to‘xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan

	<p>litsenziyalovchi organlarning ma'lumotlar bazalari majmui.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida» 25.05.2000 yildagi 71-II – son Qonuni)</i></p>
Litsenziyalash	<p>Litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida» 25.05.2000 yildagi 71-II – son Qonuni)</i></p>
Litsenziyalovchi organlar	<p>Qonun hujjalariiga muvofiq litsenziyalashni amalgalashuvchi maxsus vakolatli organlar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida» 25.05.2000 yildagi 71-II – son Qonuni)</i></p>

## M

Madaniy boyliklar	<p>Moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik ko‘char ashyolari.</p> <p><i>O'zbekiston Respublikasining "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida» 29.08.1998 yildagi 678-I – son Qonuni)</i></p>
Madaniy boyliklarning vaqtincha olib kirilishi	<p>Madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga ularni shartlashib qo'yilgan muddatda qaytarib olib chiqish majburiyati bilan bojxona chegarasi orqali olib o'tish.</p>

	<i>O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 678-I – son Qonuni)</i>
Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi	Madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ularni shartlashib qo‘yilgan muddatda qaytarib olib kirish majburiyati bilan bojxona chegarasi orqali olib o‘tish.  <i>O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 678-I – son Qonuni)</i>
Madaniy boyliklarning olib kirilishi	Madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga ularni qaytarib olib chiqish majburiyatisiz bojxona chegarasi orqali olib o‘tish.  <i>O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 678-I – son Qonuni)</i>
Madaniy boyliklarning olib chiqilishi	Madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ularni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona chegarasi orqali olib o‘tish.  <i>O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 678-I – son Qonuni)</i>
Madaniy meros ob’ektlari	Moddiy va nomoddiy madaniy meros ob’ektlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» 30.08.2001 yildagi 269-II – son Qonuni</i>
Mamlakat mudofaasi	O‘zbekiston Respublikasining suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayoti va xavfsizligi himoya qilinishini ta’minlovchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborotga oid, tashkiliy va boshqa tusdagi chora-tadbirlar tizimi.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida» 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458 – son Qonuni)</p>
Manzarali-amaliy san’at asarlari	<p>Amalda foydalaniladigan buyumlarga ko‘chirilgan ikki o‘lchovli yoki uch o‘lchovli san’at asari, shu jumladan badiiy xunarmandchilik asari yoki sanoat yo‘li bilan tayyorlanadigan asar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 272-I – son Qonuni)</p>
Manfaatlар to‘qnashuvi	<p>SHaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qaramaqarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida» 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419 – son Qonuni)</p>
Manfaatdor shaxs	<p>Qabul qilinayotgan ma’muriy hujjat yoki ma’muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek huquqlari va qonuniy manfaatlari ma’muriy hujjatga yoki ma’muriy harakatga daxldor bo‘lgan yoxud daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida» 08.01.2018 yildagi O‘RQ-457 – son Qonuni)</p>
Ma’lumotlar bazasi	1.Ob’ektiv shaklda ifodalangan hamda elektron hisoblash mashinalari (EHM) yordamida topish va ishlov berish mumkin bo‘ladigan tarzda bir tizimga solingan ma’lumotlar (masalan: maqolalar, hisob-kitoblar) majmui.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni).</p> <p>2. Ob’ektiv shaklda ifodalangan va elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) yordamida topish hamda ishlov berish mumkin bo‘ladigan tarzda bir tizimga solingan ma’lumotlar (maqolalar, hisob-kitoblar va shu kabilar) majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</p>
Ma’muriy ish yuritish	<p>Ma’muriy tartib-taomil orqali tartibga solingan ma’muriy ishni ko‘rib chiqish, ma’muriy hujjatni qabul qilish, uni ma’muriy shikoyat bo‘yicha qayta ko‘rish, shuningdek ma’muriy hujjatni ijro etish jarayoni.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida» 08.01.2018 yildagi O‘RQ-457 – son Qonuni)</p>
Ma’muriy organlar	<p>Ma’muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma’muriy boshqaruvi vakolati berilgan organlar, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida» 08.01.2018 yildagi O‘RQ-457 – son Qonuni)</p>
Ma’muriy tartib-taomil	Ma’muriy organlarning ma’muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalar.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida» 08.01.2018 yildagi O‘RQ-457 – son Qonuni)</p>
Ma’muriy qamoqqa olingan shaxs	<p>O‘ziga nisbatan ma’muriy qamoqqa olish to‘g‘risida qaror chiqarilgan fuqaro.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida» 09.01.2017 yildagi O‘RQ-420 – son Qonuni)</p>
Ma’muriy qamoqqa olish	<p>Ma’muriy jazo turi bo‘lib, u shaxsni jamiyatdan vaqtincha ajratib qo‘yish sharoitlarida saqlashdan iborat va uch sutkadan o‘n besh sutkagacha bo‘lgan muddatga, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun o‘ttiz sutkagacha bo‘lgan muddatga qo‘llaniladi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida» 09.01.2017 yildagi O‘RQ-420 – son Qonuni)</p>
Ma’muriy harkatlar	<p>Ma’muriy organning jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ma’muriy-huquqiy faoliyat sohasida amalga oshirilgan, ma’muriy yoki protsessual hujjat bo‘lмаган, yuridik ahamiyatga ega harakatlari (harakatsizligi).</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida» 08.01.2018 yildagi O‘RQ-457 – son Qonuni)</p>
Ma’muriy hujjat	<p>Ma’muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o‘zgartirishga yoki tughishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko‘ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta’sir chorasi.</p>

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida» 08.01.2018 yildagi O‘RQ-457 – son Qonuni)</i>
Ma’muriy-huquqiy faoliyat	Ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga yoxud muayyan xususiy belgilariga ko‘ra ajratiladigan shaxslar guruhiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqaruv faoliyati.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida» 08.01.2018 yildagi O‘RQ-457 – son Qonuni)</i>
Maxsus texnik reglament	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida» 23.04.2009 yildagi O‘RQ-213 – son Qonuni)</i>
Maxsus qabulxona	Ichki ishlar organlari tizimiga kiramagan, ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus muassasa.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida» 09.01.2017 yildagi O‘RQ-420 – son Qonuni)</i>
Maxsus qabulxona ma’muriyati	Maxsus qabulxonani boshqarishni amalga oshiruvchi maxsus qabulxona boshlig‘i va uning o‘rinbosarlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida» 09.01.2017 yildagi O‘RQ-420 – son Qonuni)</i>
Maxsus qabulxona xodimlari	Ma’muriy qamoqni o‘tash rejimini ta’minlash majburiyatlarini bajarayotgan ichki ishlar organlarining safdorlar, serjantlar va ofitserlar tarkibidagi shaxslari.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy qamoqni o’tash tartibi to‘g‘risida» 09.01.2017 yildagi O‘RQ-420 – son Qonuni)</i>
Mahalliy byudjet	Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</i>
Mahsulot	Tovarlar, ishlar, xizmatlar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 723-I – son Qonuni)</i>
Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi	Mahsulotning, uni loyihalash, ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), montaj qilish, sozlash, saqlash, tashish, realizatsiya qilish va utilizatsiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlarning holati bo‘lib, bunda insonning hayotiga, sog‘lig‘iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar etkazilishi ehtimoli bilan bog‘liq yo‘l qo‘ymaydigan xavf mavjud bo‘lmaydi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida» 23.04.2009 yildagi O‘RQ-213 – son Qonuni)</i>
Mahsulotlarni sertifikatlashtirish	Mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 994-XII – son Qonuni)</i>

Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi	Ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to'g'risida" 28.12.1993 yildagi 994-XII – son Qonuni)</i>
Maxsus vakolatlari organlar	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan vakolatlarga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasidagi boshqaruv va nazoratni amalga oshiruvchi organlar.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</i>
Maxsus yuklar	Qurok-yarog‘, harbiy texnika, harbiy mol-mulk, xavfli yuklar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lishi davlat nazorati ostida bo'lgan ashyolar.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to'g'risida" 11.05.2001 yildagi 213-II – son Qonuni)</i>
Mahfiy axborot	Foydalaniishi qonun hujjalariiga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</i>
Melioratsiya ob'ektlari	Kollektor-drenaj va er usti tashlama suvlarini toplash hamda ularni sug'oriladigan erlardan tashqariga chiqarib tashlashga ko'maklashadigan, kollektoriarni va kollektor-drenaj tarmog'ini, vertikal drenaj quduqlarini, melioratsiya nasos stansiyalarini (agregatlarini) va kuzatuv tarmog'ini o'z ichiga oladigan suv xo'jaligi ob'ektlari.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</p>
Metrologiya	<p>O‘lchovlar, ularning yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo‘llari haqidagi fan.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</p>
Metrologiya xizmati	<p>Davlat organlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tarmog‘i hamda ularning o‘lchovlar yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyati.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</p>
Metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish	<p>Metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriya- larining belgilangan akkreditatsiya qilish sohasida o‘lchovlarning yagona birligini ta‘minlash bo‘yicha ishlarni bajarishga vakolatli ekanligining rasmiy jihatdan tasdiqlanishi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</p>
Mehnatda mayib bo‘lish	<p>Xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida» 16.04.2009 yildagi O‘RQ-210 – son Qonuni)</p>
Mijoz (yo‘lovchi, yuk oluvchi, yuk jo‘natuvchi)	Tuzilgan tashish shartnomasiga muvofiq tashuvchining xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobilъ transporti to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 674-I – son Qonuni)</i>
Milliy akkreditatsiya tizimi	Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko‘rsatuvchi tizim.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida” 04.10.2013 yildagi O‘RQ-354 – son Qonuni)</i>
Milliy arxiv fondi	O‘zbekiston xalqining moddiy va ma’naviy hayotini aks ettirgan, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan arxiv hujjatlarining tarixan tarkib topgan va doimo boyitib boriladigan majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</i>
Milliy arxiv fondining davlat katalogi	Arxiv hujjatlari Milliy arxiv fondining tarkibiga kiritilgan arxiv fondlarining hajmi va tarkibi to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar mavjud bo‘lgan hisobga olish hujjati.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</i>
Milliy muzey fondi	O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida» 12.09.2008 yildagi O‘RQ-177 – son Qonuni)</i>

Milliy operator	Pochta aloqasi milliy operatori, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan zimmasiga O‘zbekiston Respublikasining butun hududida universal xizmatlarni majburiy ravishda ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan operator.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II – son Qonuni)</i>
Milliy xavfsizlikka harbiy sohadagi tahdidlar	O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy kuch qo‘llanilishi haqiqatan mumkinligini tavsiflovchi omillar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida» 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458 – son Qonuni)</i>
Moddiy madaniy meros ob’ektlari	Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansamblar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.  <i>O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 678-I – son Qonuni)</i>
Moliya bozori	Banklar hamda boshqa kredit, sug‘urta va o‘zga moliya tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatning, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari xizmatlarining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy bo‘linishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida bunday xizmatni ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘ladi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</i>

Moliya yili	Birinchi yanvardan o‘ttiz birinchi dekabrbъ kuni oxirigacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oluvchi davr.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</i>
Moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish)	Soliq va valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini o‘rganish va taqqoslash.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida» 24.12.1998 yildagi 717-I – son Qonuni)</i>
Monopol arzon narx	Tovar bozorida xaridor sifatida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning sotib olayotgan tovariga qo‘srimcha foyda olish yoki qilingan asossiz xarajatlarni sotuvchi hisobiga qoplash maqsadida belgilaydigan narxi yoxud tovar bozorida sotuvchi sifatida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning sotayotgan tovariga ongli ravishda shu tovarni sotishdan zarar ko‘radigan darajada belgilaydigan narxi bo‘lib, uni belgilash natijasida bozordan raqobatchilarni siqib chiqarish yo‘li bilan raqobat cheklanadi yoki cheklanishi mumkin.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</i>
Monopol qimmat narx	Tovar bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘laligicha foydalanmaslik tufayli qilgan asossiz xarajatlarini qoplash yoki tovar sifatini pasaytirish natijasida qo‘srimcha foyda olish maqsadida tovarga belgilagan narxi.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</i>
Monopolistik faoliyat	Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining monopoliyaga qarshi kurash haqidagi qonun hujjatlariga xilof bo‘lgan, raqobatga yo‘l qo‘ymaslikka, uni cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</i>
Muallif	Ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 272-I – son Qonuni)</i>
Muvofiqlik belgisi	Muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko‘rsatish uchun mahsulotga yoxud ko‘rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo‘yiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan belgi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 994-XII – son Qonuni)</i>
Muvofiqlik sertifikati	1.Sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talab-larga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 994-XII – son Qonuni)</i>  2.Sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talab-larga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i>
Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya	Ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida” 04.10.2013 yildagi O‘RQ-354 – son Qonuni)</i>
Muvofiqlikni baholash organlari	Yuridik shaxs bo‘lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida” 04.10.2013 yildagi O‘RQ-354 – son Qonuni)</i>
Muvofiqlikni tasdiqlash	Normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma, muvofiq-lik sertifikati va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida” 04.10.2013 yildagi O‘RQ-354 – son Qonuni)</i>
Muzey	Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o‘rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida» 12.09.2008 yildagi O‘RQ-177 – son Qonuni)</i>
Muzey ashyosi	Sifati yoki alohida belgilari jamiyat manfaatlari uchun saqlash, o‘rganish va ommaga namoyish etish zaruratini taqozo etuvchi madaniy boylik.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida» 12.09.2008 yildagi O‘RQ-177 – son Qonuni)</i>
Muzey kolleksiysi	O‘z kelib chiqish xususiyati yoki shaklan yaqinligi tufayli yoxud boshqa belgilari bo‘yicha birlash-tirilgandagina muzey ashyosi xususiyatiga ega bo‘ladigan madaniy boyliklar majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida» 12.09.2008 yildagi O‘RQ-177 – son Qonuni)</i>
Mutlaq monopoliya	Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tovar bozorida yagona sotuvchi yoki xaridor bo‘lgan vaziyat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</i>
Muqobil xizmat	O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘taydigan davlat xizmatining alohida turidir. Bu xizmat fuqaroning korxonalardagi, muassasalardagi, xalq xo‘jaligi tashkilotlaridagi, yuqori malaka talab etilmaydigan (yordamchi) ishlarni yoki o‘z malakasiga mos ishlarni, shu jumladan falokat, fofia, tabiiy ofat va boshqa favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf etishga oid ishlarni bajarish bilan bog‘liqdir. Muqobil xizmat fuqarolarni harbiy ishga o‘rgatishni hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun zaxiradagi jangchilar tayyorlashni ko‘zda tutadi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Muqobil xizmat to‘g‘risida» 03.07.1992 yildagi 646-XII – son Qonuni)</i>

Muhofaza zonalari	<p>Temir yo‘llardan, elektr ta’minoti va aloqa tarmoqlaridan bir me’yorda foydalanishni, temir yo‘l transporti inshootlari, qurilmalari va boshqa ob’ektlarining saqlanishi, mustahkamligi va turg‘unligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan er uchastkalari, shuningdek temir yo‘l transporti erlariiga tutash bo‘lgan siljuvchi tuproqli erlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i></p>
-------------------	--

## N

Nazorat tartibida tekshirish	<p>Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ilgarigi tekshirishda ko‘rsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishi ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida» 24.12.1998 yildagi 717-I – son Qonuni)</i></p>
Nazorat qiluvchi organlar	<p>Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida» 24.12.1998 yildagi 717-I – son Qonuni)</i></p>
Narx sohasida kamsitish	<p>Mahsulot etkazib beruvchining boshqa sharoitlar teng bo‘lgani holda o‘z mahsulotini muayyan bir xaridorga boshqa xaridorlarga nisbatan yuqoriq yoki pastroq narxda sotishi.</p>

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</i>
Nasldor hayvon	Kelib chiqishi hujjatlar bilan tasdiqlangan, muayyan zotni takror ko‘paytirish uchun foydalaniladigan va belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan hayvon.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Naslchilik to‘g‘risida» 21.12.1995 yildagi 165-I – son Qonuni)</i>
Nasldor hayvonlar va nasldor podalarni davlat ro‘yxatiga olish	Kelib chiqishini aniqlash va mahsuldorligini belgilash maqsadida nasldor hayvonlar hamda nasldor podalar haqidagi ma’lumotlarni hisobga olish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Naslchilik to‘g‘risida» 21.12.1995 yildagi 165-I – son Qonuni)</i>
Naslli mahsulot (material)	Nasldor hayvon, uning urug‘i va embrionlari, nasldor tuxum, ipak qurti urug‘i.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Naslchilik to‘g‘risida» 21.12.1995 yildagi 165-I – son Qonuni)</i>
Naslchilik	Seleksiya maqsadida nasldor hayvonlarni urchitish, naslli mahsulot (material) etishtirish va undan foydalanish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Naslchilik to‘g‘risida» 21.12.1995 yildagi 165-I – son Qonuni)</i>
Naqd bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar	Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariylarning hisobga olish ro‘yxatlaridagi yozuv shaklida muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i>
Naqd qimmatli qog‘ozlar	Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul hujjatlari shaklida tayyorlangan va muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</p>
Nogiron bola	<p>Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo‘lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bola.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida» 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139 – son Qonuni)</p>
Noyob hujjat	<p>O‘zida mavjud bo‘lgan axborot va (yoki) tashqi belgilari bo‘yicha o‘xhashi yo‘q, yo‘qotilgan taqdirda o‘zining ahamiyati va (yoki) asl qo‘lyozmaligi nuqtai nazaridan o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan alohida qimmatli hujjat.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida» 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252 – son Qonuni)</p>
Nomoddiy madaniy meros ob’ektlari	<p>Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 678-I – son Qonuni)</p>
Norezidentlar	<p>Xorijda muqim yashash joyi bo‘lgan, shu jumladan vaqtincha O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxslar;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasining tashqarisida joylashgan bo‘lib, ajnabiy davlatlarning qonunlariga muvofiq tashkil etilgan va shu qonunlar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining korxona va</p>

	<p>tashkilotlari ishtirokidagi yuridik shaxslar; O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo‘lib, immunitetga va diplomatiya imtiyozlariga ega bo‘lgan chet el diplomatiya, savdo va boshqa rasmiy vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari, shuningdek xo‘jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan o‘zga tashkilot va firmalarning vakolatxonalarini kiradi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» 07.05.1993 yildagi 841-XII – son Qonuni)</i></p>
Normativ hujjatlar	<p>Standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (shaharsozlik normalari va qoidalari, davlat farma-kopeyasi hamda farmakopeya maqolalari va bosh-qalar), texnik shartlar, texnik tavsiflar, retseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsizligiga nisbatan belgilangan talablarni o‘z ichiga oluvchi boshqa hujjatlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i></p>
Noto‘g‘ri taqqoslash	<p>Muayyan raqobatchini yoki umuman barcha raqobatchilarni, shuningdek ishlab chiqarilayotgan va (yoki) sotilayotgan tovarlarni boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tovarlariga nisbatan yomonlab taqqoslash yoki fikr bildirish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</i></p>
Noqonuniy qurolli tuzilmalar	<p>Milliy va xalqaro qonun hujjatlariga xilof ravishda shakllantirilgan, terrorchilik, ekstremistik, jinoiy yoki boshqa maqsadlarni ko‘zlovchi qurolli birlashmalar, otryadlar, guruhlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida» 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458 – son Qonuni)</i></p>

Noemissiyaviy qimmatli qog‘ozlar	Ushbu Qonunga muvofiq emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar tushunchasiga oid bo‘lмаган qimmatli qog‘ozlar. <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i>
----------------------------------	--

## O

Obligatsiya	Obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i>
Ob’ekt kodi	Boshlang‘ich matnning mashina kodiga aylantirilishi natijasida yuzaga kelgan dastur.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida» 06.05.1994 yildagi 1060-XII – son Qonuni)</i>
Ovqatga qo‘shiladigan biologik faol qo‘sishchalar	Oziq-ovqat xom ashvosini qayta ishslash yo‘li bilan yoki sun’iy usulda hosil qilingan hamda bevosita ovqat bilan birga iste’mol qilishga yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo‘sishsga mo‘ljallangan tabiiy yoxud tabiiyga aynan o‘xshaydigan biologik faol moddalarning konsentratlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i>

Odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxs	<p>Mustaqil ravishda yoki bir guruuh shaxslar tarkibida odam savdosi bilan bog‘liq har qanday harakatni sodir etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek o‘z harakatlari bilan odam savdosiga ko‘makkashadigan, xuddi shuningdek garchi o‘z mansab vakolatlariga ko‘ra to‘sinqilik qilishi va qarshi kurashishi shart bo‘lsa ham odam savdosiga to‘sinqilik qilmaydigan yoki qarshi kurashmaydigan mansabdar shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida» 17.04.2008 yildagi O‘RQ-154 – son Qonuni)</i></p>
Odam savdosiga qarshi kurashish	<p>Odam savdosining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish, uning oqibatlarini minimallashtirish, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida» 17.04.2008 yildagi O‘RQ-154 – son Qonuni)</i></p>
Oziq-ovqat mahsuloti	<p>Oziq-ovqat xom ashyosi, (shu jumladan etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar birga.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i></p>
Oziq-ovqat mahsuloti muomalasi	<p>Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, etkazib berish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq faoliyat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i></p>

Oziq-ovqat mahsulotini realizatsiya qilish	Oziq-ovqat mahsulotini ma'lum shartlar bilan sotish, etkazib berish va topshirishning boshqa shakllari.  (O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to 'g'risida" 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)
Oziq-ovqat mahsulotini qalbakilashtirish	Oziq-ovqat xom ashyosining hamda oziq-ovqat-larning xossalari va mezonlarini ataylab o'zgartirish yoki ularni almashtirib qo'yish.  (O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to 'g'risida" 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)
Oziq-ovqat qo'shimchalari	Oziq-ovqatlarga belgilangan xossalarni baxsh etish va (yoki) ularni saqlab qolish maqsadida ataylab qo'shiladigan tabiiy holdagi yoki sintez qilingan moddalar, birikmalar.  (O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to 'g'risida" 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)
Oziq-ovqat mahsulotining sifati	Oziq-ovqat mahsulotining iste'mol xossalarni belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizligini ta'minlaydigan mezonlar majmui.  (O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to 'g'risida" 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)
Oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati)	Bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, realizatsiya qilish chog'ida xavfsizlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilgan taqdirda u foydalanishga yaroqli bo'lib turadi, bu muddat tamom bo'lganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lib qolishi mumkin.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i>
Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi	Oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mosligi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i>
Oziq-ovqat xom ashyosi	Oziq-ovqatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan o‘simlik, hayvonot, mikrobiologiya, shuningdek minerallar ob’ektlari, suv.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i>
Oziq-ovqatlar	Oziq-ovqat xom ashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holida iste’mol qilinadigan mahsulotlar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i>
OIV kasalligi	Odamning immunitet tanqisligi virusi oqibatida kelib chiqqan o‘ta xavfli yuqumli kasallik.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 816-I – son Qonuni)</i>
OIV kasalligini yuqtirganlar	Odamning immunitet tanqisligi virusi kasalligini yuqtirgan shaxslar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 816-I – son Qonuni)</i>

OITS	<p>Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi, OIV kasalligining terminal (so‘nggi) bosqichi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 816-I – son Qonuni)</i></p>
Omma oldida ijro etish	<p>Asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini ijro etish yoki ma’lum qilishning har qanday boshqa shakli vositasida, bevosita yoki texnika vositalari yordamida, omma uchun ochiq joyda yoki ayni bir oila a’zolari bo‘lmagan shaxslarning keng doirasi hozir bo‘lgan joyda eshitib va (yoki) ko‘rib idrok etish uchun etkazish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</i></p>
Ommaviy axborot	<p>Cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo‘ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida» 12.12.2002 yildagi 439-II – son Qonuni)</i></p>
Ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola	<p>Har qanday sababga ko‘ra ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola, bundan etim bola mustasno.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida» 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139 – son Qonuni)</i></p>
Ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola	<p>Qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lekin bolaning ota-onasi bo‘lmagan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar).</p>

(O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida» 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139 – son Qonuni)

## P

Patent egasi	<p>1. Seleksiya yutug‘ining egasi bo‘lib, uning mulk huquqi himoya hujjatiga (patent yoki guvohnomaga) asoslanadi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 270-I – son Qonuni)</p> <p>2. Seleksiya navining egasi, duragay egasi huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olgan shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Urug‘chilik to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 267-I – son Qonuni)</p>
Patentga egalik qiluvchi	<p>Seleksiya yutug‘ining egasi bo‘lib, uning mulk huquqi patentga asoslanadi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 270-I – son Qonuni)</p>
Pestitsidlar	<p>O‘simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o‘tlarga qarshi kurashda ishlatiladigan kimyoviy moddalar, shuningdek qishloq xo‘jalik o‘simliklari rivojining regulyatorlari va defoliantlari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 116-II – son Qonuni)</p>
Pochta aloqasi	<p>Pochta jo‘natmalarini, shuningdek pul mablag‘-larining pochta o‘tkazmalarini jo‘natish (qabul qilish, ishlov berish, tashish, o‘tkazish)ni va etkazib berish (topshirish)ni ta’minlovchi texnik va</p>

	<p>transport vositalarining yagona ishlab chiqarish-texnologiya majmuini o‘zida mujassamlashtirgan aloqa turi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II – son Qonuni)</i></p>
Pochta aloqasi vositalari	<p>Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish uchun foy-dalaniladigan asbob-uskunalar, texnika va transport vositalari, shuningdek, pochta konvertlari, varaq-chalari va idishlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II–son Qonuni)</i></p>
Pochta aloqasi ob’ektlari	<p>Pochta aloqasi operatorlarining alohida bo‘linmalarli, ya’ni pochtamtlar, pochta aloqasi uzellari, bo‘limlari va punktlari, shuningdek, temir yo‘l stansiyalari va aeroportlar qoshidagi pochta almashish punktlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II – son Qonuni)</i></p>
Pochta aloqasi xizmatlari	<p>Operator yoki provayderning pochta jo‘natmalarini, shuningdek pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalari jo‘natish bo‘yicha faoliyati.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II–son Qonuni)</i></p>
Pochta jo‘natmalar	<p>Manzili ko‘rsatilgan yozma xat-xabarlar, posilkalar, to‘g‘ri jo‘natiluvchi pochta konteynerlari va tegishlichcha o‘rovdagagi bosma nashrlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II–son Qonuni)</i></p>

Pochta to‘lovingin davlat belgilari	Pochta jo‘natmalaridagi pochta aloqasi xizmatlari haqi to‘langanligini tasdiqlovchi pochta markasi va frankirlash mashinasining tamg‘a izi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II–son Qonuni)</i>
Prekursorlar	Prekursorlar ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</i>
Preparat	Moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo‘lgan aralashmasi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</i>
Prokatga berish	Asarlarning asl nusxasini yoki nusxalarini yoxud turdosh huquqlar ob’ektlarini daromad olish maqsadida vaqtinchalik foydalanish uchun berish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida» 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42 – son Qonuni)</i>
Protsessual hujjat	Ma’muriy organ tomonidan ma’muriy ish yuritish davomida qabul qilinadigan, ma’muriy ishni mazmunan hal etmaydigan hujjat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida» 08.01.2018 yildagi O‘RQ-457 – son Qonuni)</i>

Psixotrop moddalar	<p>Psixotrop moddalar ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</i></p>
--------------------	--

## Q

Qadoqlash materiallari, yordamchi materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	<p>Oziq-ovqat mahsulotini muomala jarayonida tashqi ta’sirlardan himoyalash maqsadida ishlataladigan vositalar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i></p>
Qalbakilashtirilgan dori vositasi	<p>Tarkibi va (yoki) ishlab chiqaruvchisi haqida yolg‘on ma’lumot ilova qilingan dori vositasi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i></p>
Qarz oluvchi	<p>Xorijdan mablag‘ jalb qilgan yoxud xorijdan mablag‘ jalb qilish niyatini hujjat bilan tasdiqlagan O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘rvuchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki rezident.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 263-I – son Qonuni)</i></p>
Qarzdor	<p>Kreditor foydasiga mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pulni to‘lash yoki buzilishi kreditorning majburiyatlar bajarilishini ta’minlash vositasi sifatida qarzdor berib qo‘yan</p>

	<p>mol-mulkka undiruvni qaratishga bo‘lgan imtiyozli huquqi yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan boshqa majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq harakatni sodir etishi shart bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Garov reestri to‘g‘risida» 23.10.2013 yildagi O‘RQ-356 – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlar bilan depozitar operatsiyalar	<p>Qimmatli qog‘ozlarni saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish bo‘yicha depozitariylar tomonidan hisobga olish ro‘yxatlarida amalga oshiriladigan operatsiyalar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlar bozori	<p>Yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq munosabatlari tizimi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari	<p>Qimmatli qog‘ozlar emitentlari, qimmatli qog‘ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek qonun hujjalarda belgilangan tartibda birjalar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi	<p>Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining mijizi (mijoz)	<p>Deponent yoki qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat	<p>Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha litsenziyalanadigan faoliyat turi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlar depozitariylari	<p>Qimmatli qog‘ozlarni saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish bo‘yicha faoliyat yurituvchi qimmatli qog‘ozlar bozori institutlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida» 02.09.1993 yildagi 918-XII – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlar egalari reestri	<p>Ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar egalari ning belgilangan sanadagi holatga ko‘ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlarning nomi, miqdori, nominal qiymati va toifasi, shuningdek reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxslarga axborotni yuborish imkoniyatini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan ro‘yxati.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi	Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish.

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i>
Qimmatli qog‘ozlar egasi	Qimmatli qog‘ozlar unga mulk huquqi asosida yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i>
Qimmatli qog‘ozlar harakati	Depozitariylarning hisobga olish ro‘yxatlarida qayd qilinadigan qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarning o‘tishi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i>
Qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar	Qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, meros qilib olish, ularni ustav fondiga kiritish va qimmatli qog‘ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa aktlar, shuningdek qimmatli qog‘ozlar garovi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i>
Qimmatli qog‘ozlarga doir fbyuchers	O‘zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarni qat’iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i>
Qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish	Qimmatli qog‘ozlarni ularning dastlabki egalariga berish.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Qimmatli qog‘ozlarni nominal saqlovchi	<p>Qimmatli qog‘ozlar egalarining reestrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan, qimmatli qog‘ozlarning egasi bo‘lmagan holda boshqa shaxsning (qimmatli qog‘ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning) topshirig‘iga binoan qimmatli qog‘ozlarni saqlash, hisobga olish va ularga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlashni amalga oshiruvchi depozitariy.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish	<p>Yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining ob’ekti sifatida qimmatli qog‘ozlar paydo bo‘lishiga qaratilgan harakatlari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Qimmatli qog‘ozlarning Markaziy depozitariysi	<p>1.O‘zbekiston Respublikasi depozitariylarida qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish va qimmatli qog‘ozlar harakatining yagona tizimini ta’minlovchi depozitariy.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</p> <p>2.Depozitariylarda depo hisobvaraqlari bo‘yicha emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni saqlash, bunday qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar harakati yagona tizimini ta’minlovchi davlat depozitariysi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>

Qimmatli qog‘ozlarning muomalasi	<p>Qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog‘ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlarning hisobga olish ro‘yxatlari	<p>Qimmatli qog‘ozlarni depozitariyda saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish bo‘yicha depozitar operatsiyalar standartlari bilan belgilangan yozuvlar tizimi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i></p>
Qimmatli qog‘ozlarning hosilalari	<p>O‘z egalarining boshqa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsonlari, qimmatli qog‘ozlarga doir fbyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</i></p>
Qisqa muddatli tekshirish	<p>Nazorat qiluvchi organlar jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risidagi murojaatlari asosida amalga oshiradigan tekshirish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida» 24.12.1998 yildagi 717-I – son Qonuni)</i></p>
Qoraqalpog‘iston Respublikasining	Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va

byudjeti	<p>ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II–son Qonuni)</i></p>
Qurol-yarog‘ va harbiy texnika	<p>Qurolli kuchlarni qurollantirishga mo‘ljallangan turli xil qurollarning va ularni jangovar qo‘llashni ta‘minlovchi vositalarning majmualari, shu jumladan eltid qo‘yish vositalari, mo‘ljalga olish, uchirish, boshqarish tizimlari, shuningdek boshqa maxsus texnika vositalari, o‘q-dorilar va ularning tarkibiy qismlari, ehtirot qismlar, asbob-uskunalar va ularning butlovchi buyumlari, mashq qurollari (turli xil qurol-yarog‘ va harbiy texnika maketlari, trenajyorlari va imitatorlari).</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranzitti to‘g‘risida» 11.05.2001 yildagi 213-II – son Qonuni)</i></p>
Qurolli mojaro	<p>Davlatlar o‘rtasidagi (xalqaro qurolli mojaro) yoki bir davlat hududi doirasidagi (ichki qurolli mojaro) qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, milliy, etnik, diniy va boshqa ziddiyatlarni hal etish maqsadidagi miqyosi cheklangan qurolli to‘qnashuv (harakat, janjal) bo‘lib, bunda urush holati e’lon qilinmaydi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasini to‘g‘risida» 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458 – son Qonuni)</i></p>
Qutqaruv vositalari	<p>Qutqaruv ishlarini olib borish uchun mo‘ljallangan texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulot, shu jumladan maxsus aloqa va boshqaruv vositalari, texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar, mol-mulk, qutqaruv ishlarini bajarish texnologiyasiga doir uslubiy materiallar, videomateriallar, foto-materiallar, elektron hujjatlar, shuningdek elektron-</p>

	<p>hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar bazalari, boshqa vositalar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida» 26.12.2008 yildagi O'RQ-195 – son Qonuni)</i></p>
Qutqaruv ishlari	<p>Favqulodda vaziyatlar zonasida odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularga xos bo'lgan xavfli omillar ta'sirini yo'qotish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan harakatlar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida» 26.12.2008 yildagi O'RQ-195 – son Qonuni)</i></p>
Qutqaruv tuzilmasi	<p>Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan, asosini maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqaruv vositalari bilan ta'minlangan qutqaruvchilar bo'linmalari tashkil etgan mustaqil tuzilma yoki qutqaruv xizmati tarkibiga kiruvchi tuzilma.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida» 26.12.2008 yildagi O'RQ-195 – son Qonuni)</i></p>
Qutqaruv xizmati	<p>Faoliyati bo'yicha yagona tizimga birlashtirilgan, asosini professional qutqaruv tuzilmalari tashkil etgan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida» 26.12.2008 yildagi O'RQ-195 – son Qonuni)</i></p>

Qutqaruvchi	<p>Muayyan dastur bo‘yicha qutqaruv ishlariga tayyorlangan va belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida» 26.12.2008 yildagi O‘RQ-195 – son Qonuni)</i></p>
-------------	---

## R

Radiatsiyaviy avariya	<p>Uskuna nosozligi, xodimlar (personal)ning xatti-harakatlari (harakatsizligi), tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan normalardan ko‘proq nurlanish olishiga yoki atrof muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoxud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</i></p>
Radiatsiyaviy xavfsizlik	<p>Fuqarolar va atrof muhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta’siridan muhofazalanganlik holati.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</i></p>
Radioaktiv chiqindilar	<p>Keyinchalik foydalanish uchun mo‘ljallanmagan, tarkibidagi radionuklidlarning aktivlik darajasi qonun hujjatlarida belgilangan ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lgan har qanday agregat holatidagi moddalar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</i></p>

Radiochastota spektri	Shartli ravishda uch ming gigagersdan kamroq qilib qabul qilingan oraliqdagi radiochastotalar to‘plami.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiochastotalar spektri to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 725-I – son Qonuni)</i>
Radiochastota spektrining monitoringi	Radiochastota spektri holatini kuzatish, undan foydalanishni baholash, radiochastota spektri to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish va bartaraf etish uchun mo‘ljallangan tashkiliy-texnik tadbirlar majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiochastotalar spektri to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 725-I – son Qonuni)</i>
Radiochastotalar (radioto‘lqinlar)	Belgilarni, signallarni, yozma matnni, tasvirlar va tovushlarni uzatish yoki qabul qilish maqsadida fazoda sun’iy to‘lqin o‘tkazgichsiz tarqatiladigan, shartli ravishda uch ming gigagersdan kamroq qilib qabul qilingan chastotali elektromagnit to‘lqinlar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiochastotalar spektri to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 725-I – son Qonuni)</i>
Radiochastotalar polosasi	Radiochastota spektrining muayyan sharoitlarda radioelektron vositalar yoki yuqori chastotali qurilmalardan foydalanish uchun mo‘ljallangan qismi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiochastotalar spektri to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 725-I – son Qonuni)</i>
Radioelektron vositalar	Radioto‘lqinlarni tarqatish va (yoki) qabul qilish uchun mo‘ljallangan texnik qurilmalar yoki tizimlar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiochastotalar spektri to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 725-I – son Qonuni)</i>

Raqobat	<p>1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari har bir sub’ekt tomonidan tegishli tovar bozoridagi tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini cheklaydi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</p> <p>2.Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</p>
Rezidentlar	<p>O‘zbekiston Respublikasida muqim yashash joyi bo‘lgan, shu jumladan vaqtincha O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida turgan jismoniy shaxslar; O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tuzilgan va ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar, shu jumladan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasining immunitetga va diplomatiya imtiyozlariga ega bo‘lgan xorijdagi diplomatiya, savdo va boshqa rasmiy vakolatxonalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi korxona va tashkilotlarining chet eldagi xo‘jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan o‘zga vakolatxonalar kiradi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» 07.05.1993 yildagi 841-XII – son Qonuni)</p>

Reklama	Bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va texnologiyalar to‘g‘risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 723-I – son Qonuni)</i>
Reklama beruvchi	Reklamani tayyorlash va (yoki) tarqatish uchun unga buyurtmachi bo‘lgan shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 723-I – son Qonuni)</i>
Reklama vositalari	Reklamani undan foydalanuvchiga etkazish uchun ishlatiladigan vositalar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 723-I – son Qonuni)</i>
Reklama tayyorlovchi	Reklama tayyorlashni to‘liq yoki qisman amalgalashuvchi shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 723-I – son Qonuni)</i>
Reklama tarqatuvchi	Reklama vositalari orqali reklama tarqatishni amalgalashuvchi shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 723-I – son Qonuni)</i>
Reklamadan foydalanuvchi	Reklama yo‘naltirilgan shaxs yoki shaxslar guruhi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 723-I – son Qonuni)</i>

Respublika byudjeti	<p>Davlat byudjetining umum davlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida» 14.12.2000 yildagi 158-II – son Qonuni)</i></p>
Retsept	<p>Shifokorning farmatsevtga dori tayyorlash va berish haqidagi yozma ko‘rsatmasi bo‘lib, unda dorini qo‘llash usuli qayd etilgan bo‘ladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i></p>
Ruxsat berishga doir talablar va shartlar	<p>Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat asosida harakatni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalgao shirishda tadbirkorlik sub’ekti tomonidan bajariishi shart bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlar yig‘indisi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida» 20.12.2012 yildagi O‘RQ-341 – son Qonuni)</i></p>
Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat	<p>Vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan va tadbirkorlik sub’ektiga beriladigan, tadbirkorlik faoliyati sohasida harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalgao shirish huquqini beradigan hamda ruxsatnomasi, kelishuv, xulosa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ifodalanadigan qaror.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida» 20.12.2012 yildagi O‘RQ-341 – son Qonuni)</i></p>

Ruxsatnama	Ochiq varaq olgan arxeologga arxeologiya ob'ektida arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalarini va arxeologiya nazoratini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to 'g'risida» 13.10.2009 yildagi O'RQ-229 – son Qonuni)</i>
------------	--

## S

Sanitariya-muhofaza zonasi	Ionlashtiruvchi nurlanish manbai atrofidagi hudud bo'lib, u erda fuqarolarning nurlanish olish darjasini mazkur manbadan normal foydalanish sharoitida aholi uchun nurlanish dozasining belgilangan asosiy chegarasidan oshishi mumkin.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to 'g'risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</i>
Sanitariya-epidemiologik xulosa	Oziq-ovqat mahsulotining va uni tayyorlash hamda undan foydalanish uchun mo'ljallangan uskunalarning sanitariya qoidalariiga, normalariga va gigiena normativlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to 'g'risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i>
Sertifikat	1.Naslidor hayvonning kelib chiqishi, mahsuldorligi va boshqa sifatlarini, shuningdek urug' yoki embrionning sifatini tasdiqlovchi hujjat.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Naslchilik to 'g'risida» 21.12.1995 yildagi 165-I – son Qonuni).</i>

	<p>2. Turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa normativ hujjatga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i></p>
Sertifikatlashtirish milliy tizimi	<p>Davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o‘tkazishda o‘z tartib va boshqaruv qoidalariiga ega bo‘lgan tizim.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 994-XII – son Qonuni)</i></p>
Sifat bo‘yicha ekspert-auditor	<p>Qonun hujjalarda belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilgan, muvofiqlikni baholash sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakaga ega bo‘lgan mutaxassis.</p> <p><i>“Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 994-XII – son Qonuni)</i></p>
Sifatsiz dori vositasi	<p>Yaroqsiz holga kelgan dori vositasi va (yoki) yaroqlilik muddati o‘tgan dori vositasi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i></p>
Standart yozuv	<p>Dori preparatlarining davolash xususiyatlari samaradorligi tekshirilganidan so‘ng tuzilgan tarkibi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i></p>
Suv iste’moli (suvni iste’mol qilish)	<p>Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv ob’ektidan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish.</p>

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</p>
Suv iste’molchilarini uyushmasi	<p>Yuridik shaxs bo‘lgan suv iste’molchilari tomonidan suvgaga doir munosabatlar sohasidagi o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun ixtiyoriy asosda tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkiloti.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</p>
Suv iste’molchisi	<p>O‘z ehtiyojlarini qondirish uchun suv ob’ektidan suv resurslarini belgilangan tartibda oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</p>
Suv ob’ektlarini muhofaza qilish	<p>Suv ob’ektlarini saqlash va tiklashga qaratilgan tadbirlar tizimi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</p>
Suv rejimi	<p>Suv ob’ektlari va tuproq-gruntda suv sathi, tezligi, sarfi va hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</p>
Suv resurslari	<p>Foydalilaniladigan yoki foydalanilishi lozim bo‘lgan suv ob’ektlari suvlari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</p>

Suv xo‘jaligi ob’ekti	Suv resurslarini to‘plash, boshqarish, etkazib berish, ulardan foydalanish, ularni iste’mol qilish, ajratib berish va muhofaza qilish maqsadida suv xo‘jaligi faoliyati amalga oshiriladigan suv ob’ekti.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</i>
Suvdan foydalanish	Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suv resurslarini suv ob’ektidan olmagan holda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</i>
Suvdan foydalanuvchi	Suv resurslarini suv ob’ektidan olmagan holda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</i>
Suvlarning zararli ta’siri	Suv toshishi, suv bosishi, zax bosishi va suvlarning o‘zga ta’sirlari natijasida ayrim tabiiy-xo‘jalik ob’ektlari va hududlarning yuvilishi, buzilishi, loyqa cho‘kishi, botqoqlanishi, sho‘rlanishi va boshqa salbiy hodisalar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</i>
Sud eksperti	Xulosa berish uchun fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida» 01.06.2010 yildagi O‘RQ-249 – son Qonuni)</i>

Sud ekspertining xulosasi	<p>Sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to 'g'risida» 01.06.2010 yildagi O'RQ-249 – son Qonuni)</i></p>
Sud ekspertizasi	<p>Fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to 'g'risida» 01.06.2010 yildagi O'RQ-249 – son Qonuni)</i></p>
Sug'urta	<p>Inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisa va boshqa voqealar natijasida etkazilgan zarar hamda talafotlarni jismoniy va yuridik shaxslar to'lagan sug'urta badallari (sug'urta puli)dan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to'liq yoki qisman qoplash yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari sug'urtalanishini ta'minlashga doir munosabatlar demakdir.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta to 'g'risida» 06.05.1993 yildagi 833-XII – son Qonuni)</i></p>
Sug'urta puli	<p>1. Bu shunday summaki, sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda etkazilgan zaraming o'rmini uning doirasida jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga yoki huquqiy vorisiga) qoplash majburiyatini oladi.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish to 'g'risida» 21.04.2008 yildagi O'RQ-155I – son Qonuni)</i></p>

	<p>2. Bu shunday summaki, sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda yo‘lovchining hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga etkazilgan zararning o‘rnini ushbu summa doirasida qoplash majburiyatini oladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida» 26.05.2015 yildagi O‘RQ-386 – son Qonuni)</i></p>
Sug‘urta qildiruvchi	<p>Sug‘urtalovchi bilan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasini tuzgan transport vositasi egasi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish to‘g‘risida» 21.04.2008 yildagi O‘RQ-155I – son Qonuni)</i></p>

## T

Tabiiy monopoliya	<p>Tovar bozoridagi shunday holatki, unda texnologik hususiyatlarga ko‘ra ishlab chiqarish xarajatlari ortib ketishi munosabati bilan muayyan turdagi tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan talabni qondirishning raqobatga asoslangan sharoitni yaratib bo‘lmaydi yoki bunday sharoitni yaratish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas;</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida» 24.04.1993 yildagi 398-I – son Qonuni)</i></p>
Tabiiy monopoliya sub’ekti	<p>Tabiiy monopoliya sharoitida tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish (realizatsiya qilish) bilan mashg‘ul xo‘jalik yurituvchi sub’ekt (yuridik shaxs).</p>

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida» 24.04.1993 yildagi 398-I – son Qonuni)</i>
Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati)	<p>Qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) yo‘li bilan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida» 14.04.1999 yildagi 754-I – son Qonuni)</i></p>
Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomili	<p>Harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to‘g‘risidagi arizaning topshirilishi va ko‘rib chiqilishi, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning berilishi, amal qilish muddatining uzaytirilishi, to‘xtatib turilishi, qayta tiklanishi, tugatilishi, qayta rasmiylashtirilishi va bekor qilinishi jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar majmui.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida» 20.12.2012 yildagi O‘RQ-341 – son Qonuni)</i></p>
Talabnama beruvchi	<p>Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranzitiga ruxsatnoma olish uchun murojaat etgan shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranzitti to‘g‘risida» 11.05.2001 yildagi 213-II – son Qonuni)</i></p>
Tamaki mahsuloti	<p>Tamakidan yoki uning o‘rnini bosuvchi narsadan tayyorlangan har qanday mahsulot.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Alkogolb va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida» 05.10.2011 yildagi O‘RQ-302 – son Qonuni)</i></p>

Tahdid soluvchi davr	Vaqtning turli muddat davom etadigan, qoida tariqasida, harbiy mojaro boshlanishidan oldinga to‘g‘ri keladigan hamda harbiy-siyosiy vaziyat o‘ta keskinlashganligi bilan tavsiflanadigan davri.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida» 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458 – son Qonuni)</i>
Tekshirish	Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan qonunlar hamda o‘z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida» 24.12.1998 yildagi 717-I – son Qonuni)</i>
Tekshirishlarni qayd etish daftari	O‘tkazilgan tekshirishlar to‘g‘risidagi axborot yozib qo‘yiladigan maxsus daftar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida» 24.12.1998 yildagi 717-I – son Qonuni)</i>
Telekommunikatsiya vositalari	Elektrmagnit yoki optik signallarni hosil qilish, uzatish, qabul qilish, qayta ishslash, kommutatsiya qilish hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi texnik qurilmalar, asbob-uskunalar, inshootlar va tizimlar.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I – son Qonuni)</i>
Telekommunikatsiya operatori	Mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida telekommunikatsiyalar tarmog‘iga ega bo‘lgan, uning ishlashi, rivojlanishini ta’minlovchi va telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I –son Qonuni)</p>
Telekommunikatsiyalar tarmog‘i	<p>Uzatishlarning bir yoki bir necha turini: telefon, telegraf, faksimilъ turlarini, ma’lumotlar uzatish va hujjatli xabarlarning boshqa turlarini, televizion va radioeshittirish dasturlarini translyasiya qilishni ta’minlovchi telekommunikatsiya vositalarining majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I –son Qonuni)</p>
Telekommunikatsiyalar tarmoqlarini attestatsiyadan o‘tkazish	<p>Telekommunikatsiyalar tarmoqlari himoyalanganlik holatining axborot xavfsizligi sohasidagi davlat standartlari va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan tashkiliy-texnik tadbirlar majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I –son Qonuni)</p>
Telekommunikatsiyalar xizmatlari	<p>Operator va provayderning signallar hamda boshqa axborot turlarini telekommunikatsiya tarmoqlari orqali qabul qilish, uzatish, qayta ishlashga doir faoliyati mahsuli.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I –son Qonuni)</p>
Telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi	<p>Telekommunikatsiyalar xizmatlarining iste’molchisi hisoblangan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I –son Qonuni)</p>

Temir yo‘l transporti	<p>Umumiy foydalanishdagi transport turlaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish va ijtimoiy yo‘nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni o‘z tarkibiga olgan, boshqa davlatlarning temir yo‘llari va transportning boshqa turlari bilan o‘zaro hamkorlikda tashish ehtiyojlarini ta’minlovchi yagona ishlab chiqarish-texnologiya majmuidan iboratdir.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i></p>
Temir yo‘l transporti korxonasi	<p>Temir yo‘l asosiy faoliyatining tuzilmaviy bo‘linmasi bo‘lib, bevosita tashish jarayonini ta’minlaydi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i></p>
Temir yo‘l transporti muassasasi	<p>Temir yo‘lning kadrlar tayyorlash, temir yo‘l transporti xodimlariga ijtimoiy-maishiy va madaniy xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan tuzilmaviy bo‘linmasi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i></p>
Temir yo‘l transporti tashkiloti	<p>Temir yo‘lning qo‘sishimcha yordamchi faoliyatni amalga oshiruvchi va tashish jarayonida bevosita ishtirok etmaydigan tuzilmaviy bo‘linmasi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i></p>
Temir yo‘l ustavi	<p>Qonun hujjalariiga muvofiq temir yo‘lning, temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning (shu jumladan ular nomidan ish ko‘rvuchi ekspeditorlik va boshqa tashkilotlarning) huquqlari, majburiyatları va javobgarligini belgilaydigan normativ hujjat.</p>

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i>
Terrorizm	<p>Siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob‘ektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur etkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqtishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtish yoki boshqa jinoiy qilmishlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida» 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>
Terrorizmni moliyalashtirish	<p>Terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, faoliyat ko‘rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta’minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida» 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>

Terrorchi	<p>Terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan, shuningdek terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorija chiqib ketishni yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni amalga oshirgan shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida» 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>
Terrorchilik guruhi	<p>Oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko‘rgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilgan shaxslar guruhi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida» 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>
Terrorchilik tashkiloti	<p>Ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida» 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>
Terrorchilik faoliyati	<p>Terrorchilik harakatini uyushtirish, rejorashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, terrorchilik harakatiga undashdan, terrorchilik tashkilotini tuzishdan, terrorchilarni yollash, tayyorlash va qurollantirishdan, ularni moliyalashtirish va moddiy-texnika jihatidan ta’minlashdan iborat bo‘lgan faoliyat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida» 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>
Terrorchilik harakati	Garovda ushlab turish uchun shaxslarni qo‘lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy, boshqa guruhlari, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining

	<p>hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik ob'ektlarni shu jumladan kontinental shelfda joylashgan statsionar platformalarni bosib olish, shikastlantirish, yo'q qilish, portlatishlar, o't qo'yishlar, portlatish qurilmalarini, radioaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy, boshqa zaharovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo'rqtish, er usti, suv va havo transporti vositalarini qo'lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo'q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda vahima ko'tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga avariylar, texnogen xususiyatli halokatlar sodir etish yo'li bilan zarar etkazish yoki xavf tug'dirish, tahdidni har qanday vositalar va usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarda belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>
Terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan zona	<p>Joyning yoki akvatoriyaning alohida uchastkalari, havo bo'shlig'i, transport vositalari, binolar, imoratlar, inshootlar, xonalar hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan doiradagi ularga tutash hududlar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>
Texnik jihatdan tartibga solish	<p>Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish;</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" 23.04.2009 yildagi O'RQ-213 – son Qonuni)</i></p>

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar	Texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" 23.04.2009 yildagi O'RQ-213 – son Qonuni)</i>
Texnogen ravishda o'zgartirilgan radiatsiyaviy fon	Inson faoliyati natijasida o'zgargan tabiiy radiatsiyaviy fon.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida" 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</i>
Texnik reglament	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" 23.04.2009 yildagi O'RQ-213 – son Qonuni)</i>
Tibbiy buyumlar	Kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash uchun tibbiyatda qo'llaniladigan buyumlar.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</i>
Tibbiy ogohlantirish	Alkogol mahsuloti idishining yorlig'ida hamda tamaki mahsulotining qutisida (o'rovida) joylashtiriladigan, alkogol yoki tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risidagi axborot.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida» 05.10.2011 yildagi O‘RQ-302 – son Qonuni)</p>
Tijorat siri	<p>Uchinchi shaxslarga noma’lumligi sababli fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiyot sohalarida hamda boshqa sohalarda tijorat qimmatiga ega bo‘lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo‘lib, ushbu axborot mulkdori uning maxfiyligini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘radi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida» 11.09.2014 yildagi O‘RQ-374 – son Qonuni)</p>
Tijorat siri rejimi	<p>Tijorat siridan foydalanishni cheklaydigan huquqiy, tashkiliy, texnik va boshqa chora-tadbirlar tizimi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida» 11.09.2014 yildagi O‘RQ-374 – son Qonuni)</p>
Tijorat sirini oshkor etish	<p>Tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning uchinchi shaxslarga bunday axborot mulkdorining yoki konfidentning roziligesiz yoxud mehnat shartnomasi (kontrakt) yoki fuqarolik-huquqiy shartnomaga xilof ravishda, mumkin bo‘lgan har qanday shaklda (og‘zaki, yozma, boshqa shaklda, shu jumladan <u>texnika</u> vositalaridan foydalangan holda) ma’lum bo‘lib qolishiga olib keladigan harakat yoki harakatsizlik.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida» 11.09.2014 yildagi O‘RQ-374 – son Qonuni)</p>
Tijorat sirining maxfiyligi	Tijorat sirining tarqalib ketishi, oshkor etilishi va undan ruxsatsiz foydalaniishi xavfsizligi ta’minlanganligi holati.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida» 11.09.2014 yildagi O‘RQ-374 – son Qonuni)</p>
Tijorat sirining mulkdori	<p>Tijorat siriga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishni amalga oshiruvchi va unga nisbatan tijorat siri rejimini o‘rnatgan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida» 11.09.2014 yildagi O‘RQ-374 – son Qonuni)</p>
Tovar	<p>1. Sotish (almashtirish) uchun mo‘ljallangan faoliyat mahsuli bo‘lib, ishlar va xizmatlar ham shunga kiradi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni).</p> <p>2. Ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste’molchiga shartnoma bo‘yicha sotish uchun mo‘ljallagan mahsuli, shu jumladan, import mahsuloti.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</p> <p>3. Faoliyatning olish va realizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan mahsuli, shu jumladan ishlar va xizmatlar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</p>
Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi	Tarmoq xo‘jalik birlashmalari tarkibiga kirmaydigan kichik va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini a’zolik shart bo‘lgan holda shartnoma asosida birlashtiruvchi davlatga qarashli bo‘lmagan notijorat tashkilotdir.

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar ishlab chiqaruvchilar va talbirkorlar palatalari to‘g‘risida» 24.04.1997 yildagi 404-I – son Qonuni)</p>
Tovar cheki	<p>Tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to‘langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to‘langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma’lumot ko‘rsatilgan hujjat.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</p>
Tovarni (ishni, xizmatni) iste’molchidan qaytarib olish	<p>Agar tovar (ish, xizmat) iste’molchi mulkiga aylangan yoki unga taklif etilgan bo‘lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan amalga oshiriladigan, tovarning (ishning, xizmatning) xavfsizligi talablariga mos bo‘lmagan tovarni (ishni, xizmatni) qaytarib olishga qaratilgan har qanday chora.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</p>
Tovarni (ishni, xizmatni) muomaladan chiqarish	<p>Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan amalga oshiriladigan, tovarning (ishning, xizmatning) xavfsizligi talablariga mos bo‘lmagan tovarga (ishga, xizmatga) ofertani tugatish va bunga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan har qanday chora.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</p>
Tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni	<p>Tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bo‘lmaydigan qilib qo‘yadigan yoxud bartaraf etish uchun ko‘p mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</p>

Tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni	<p>Tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnomalariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo‘yiladigan talablarga nomuvofiqligi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i></p>
Tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi	<p>Tovarni iste’mol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek, ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida iste’molchinginayot, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga va atrof-muhitga zarar etkazilishi ehtimoli bilan bog‘liq xavf xatarning yo‘qligi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i></p>
Toksikologiya-gigiena ekspertizasi	<p>Oziq-ovqat mahsuloti ustida amalga oshiriladigan bir turkum laboratoriya tadqiqotlari bo‘lib, ular mavjud normalar va qoidalar bilan qiyoslashga mo‘ljallangan bo‘ladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida» 30.08.1997 yildagi 483-I – son Qonuni)</i></p>
Tranzit	<p>O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida jo‘natish va etib borish punktlari joylashgan maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali vakolatli organlar nazorati ostida barcha turdagani transportda o‘tishi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to‘g‘risida» 11.05.2001 yildagi 213-II – son Qonuni)</i></p>

Tranzit ruxsatnomasining egasi	<p>Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranzitiga ruxsatnoma olgan shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to‘g‘risida» 11.05.2001 yildagi 213-II – son Qonuni)</i></p>
Transport vositasi	<p>1. Odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan qurilma.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakat havf-sizligi to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 818-I – son Qonuni)</i></p> <p>2. Yo‘llarda odamlarni, bagajni, yuklarni yoki o‘ziga o‘rnatilgan uskunalarini tashish uchun mo‘ljallangan qurilma.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish to‘g‘risida» 21.04.2008 yildagi O‘RQ-155I – son Qonuni)</i></p>
Transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi	<p>Sug‘urta shartnomasi bo‘lib, unga ko‘ra sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda jabrlanuvchilarga ularning hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga ushbu sug‘urta hodisasi oqibatida etkazilgan zararning o‘rnini shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga sug‘urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish to‘g‘risida» 21.04.2008 yildagi O‘RQ-155I – son Qonuni)</i></p>
Transport vositasidan foydalanish	Transport vositasidan uning yo‘llarda (yo‘l harakatida), shuningdek ularga tutash, transport vositalari harakati uchun mo‘ljallangan hududlarda harakatlanishidan iborat bo‘lgan foydalanish. Transport vositasiga o‘rnatilgan va transport vositasining harakatlanishda ishtirok etishi bilan

	<p>uzviy bog‘liq bo‘lmagan uskunalardan foydalanish transport vositasidan foydalanish hisoblanmaydi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish to‘g‘risida» 21.04.2008 yildagi O‘RQ-155I – son Qonuni)</i></p>
Transport vositasining egasi	<p>1.Transport vositasiga mulk huquqida yoki boshqa ashyoviy huquqlarda egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakat havfsizligi to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 818-I – son Qonuni).</i></p> <p>2.Transport vositasining mulkdori, shuningdek transport vositasiga xo‘jalik yuritish huquqi yoki operativ boshqarish huquqida yoxud boshqa qonuniy asosda (mulk ijarasi shartnomasi, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma, tegishli organning mazkur shaxsga transport vositasini topshirish to‘g‘risidagi farmoyishi va shu kabilar) egalik qiluvchi shaxs. O‘z xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi tufayli, shu jumladan transport vositasining mulkdori yoxud o‘zga egasi bilan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi asosida transport vositasini boshqaruvchi shaxs transport vositasining egasi bo‘lmaydi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish to‘g‘risida» 21.04.2008 yildagi O‘RQ-155I – son Qonuni)</i></p>
Transport xizmatlari bozori	<p>Yuklar, yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagajini tashuvchi, transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatuvchi va ta’mirlovchi, temir yo‘l transportida tashish bilan bog‘liq qo‘sishimcha yordamchi ishlarni hamda boshqa ish turlarini (xizmatlarni) bajaruvchi soha.</p>

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i>
Transchegaraviy suv ob’ektlari	<p>Ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o‘tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan suv ob’ektlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</i></p>
Transchegaraviy suvlar	<p>Ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o‘tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan har qanday er usti yoki er osti suvlarini.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</i></p>
Turizm	<p>Jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi).</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i></p>
Turist	<p>O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo‘nab ketgan) jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i></p>
Turistik guruh rahbari	<p>Turistik faoliyat sub’ektining vakili bo‘lgan va uning nomidan ish ko‘rib, turistlarga hamrohlik qiluvchi, turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta’minlovchi jismoniy shaxs.</p>

	<i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i>
Turistik industriya	Turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko‘rsatishni ta’minlovchi turli sub’ektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalari, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i>
Turistik resurslar	Tegishli hududning tabiiy-iqlim, sog‘lomlashadirish, tarixiy-madaniy, ma’rifiy va ijtimoiy-maishiy ob’ektlari majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i>
Turistik faoliyat	Ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq sayohatlarni va ular bilan bog‘liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i>
Turistik faoliyat sub’ektlari	Belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan va turistik xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziysi bo‘l  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i>
Turistik faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya	Turistik faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi maxsus ruxsatnoma.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i>
Turistik xizmatlar	Turistik faoliyat sub’ektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko‘rsatish borasidagi, shuningdek turistlarning

	ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 830-I – son Qonuni)</i>
--	---

## U

Uy-joy maydonining ijtimoiy normasi	Uy-joy maydonining bir kishiga to‘g‘ri keladigan, sanitariya-gigiena normalari va qoidalari talablariga mos o‘lchamlari bo‘lib, shunga qarab uy-joy xonalari, uy-joy va kommunal xizmatlarga haq to‘lash yuzasidan kompensatsiyalar beriladi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Davlat uy-joy siyosatining asoslari to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 351-I – son Qonuni)</i>
Uy-joy sohasi	Davlat iqtisodiy qudratining bir qismi bo‘lib, uy-joy va muhandislik inshootlarini qurish, qayta qurish, asrash, saqlash, ta’mirlashni o‘z ichiga oladi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Davlat uy-joy siyosatining asoslari to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 351-I – son Qonuni)</i>
Uy-joy sohasidagi ko‘chmas mulk	Egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari belgilab qo‘yilgan quyidagi mol-mulk: turar joy binolari yashashga mo‘ljallangan hamda mo‘ljallanmagan xonalari bilan birga; tomorqa xo‘jalik imoratlari; obodonlashtirish unsurlari; qurilishi tugallanmagan turar joy binolari; uy-joy sohasi muhandislik infrastrukturasing inshootlari va unsurlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Davlat uy-joy siyosatining asoslari to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 351-I – son Qonuni)</i>

Uy-joy fondi	Inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan uy-joy binolaridan, shu jumladan turar joy binolari, kvartiralar, xizmat uy-joylari, maxsus uylar (yotoqxonalar, internat-uylar, yolg‘iz qariyalar uchun uylar va hokazo) hamda boshqa uy-joy binolaridan iborat fond.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Davlat uy-joy siyosatining asoslari to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 351-I – son Qonuni)</i>
Umumiy tashqi qarz	Rezidentlarning davlat tomonidan kafolatlanmagan tashqi qarzlari hamda davlat tashqi qarzi summasi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 263-I – son Qonuni)</i>
Umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar	Temir yo‘lning poezdlarni qabul qilish va jo‘natish, yuklar, bagaj va yuk bagajini qabul qilish hamda topshirish va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish, manevr ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tegishli operatsiyalarni bajarish uchun ochiq bo‘lgan temir yo‘l bekatlari joylashgan tarmog‘i.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i>
Universal xizmatlar	1.Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlari orqali barcha foydalanuvchilarga ko‘rsatiladigan belgilangan sifatdagi majburiy xizmatlar to‘plami (foydalanuvchilarning bu tarmoqdan foydalanishini ta’minlash, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon so‘zlashuvlari, telegrammalar jo‘natish va boshqalar).  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida» 20.08.1999 yildagi 822-I – son Qonuni)</i>

	<p>2. Pochta aloqasining universal xizmatlari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi hududida umumiy foydalanishdagi pochta aloqasining yozma xat-xabarlarni jo‘natish bo‘yicha barcha foydalanuv-chilarga ko‘rsatiladigan xizmatlari.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II – son Qonuni)</i></p>
Urug‘lik turkumi	<p>Bir turdag'i (muayyan ekin, nav, reproduksiya, toifa, genetik (nav) tozalikdagi, muayyan yil hosilidan olingan, kelib chiqishi bir), hujjat bilan tasdiqlangan maxsus jamlangan urug‘likning bir xil miqdori.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Urug‘chilik to‘g‘risida» 29.08.1996 yildagi 267-I – son Qonuni)</i></p>
Ustun mavqe	<p>O‘rnini bosuvchisi bo‘lmagan tovar bozorida yoki bir-birining o‘rnini bosadigan tovarlar bozorida xo‘jalik yurituvchi sub’ektning (bir guruh shaxslarning) o‘ziga (o‘zlariga) raqobatni cheklashga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish, boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bozorga kirish erkinligini qiyinlashtirish yoki ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan hukmron mavqe. Bozordagi ulushi oltmis besh va undan ortiq foizni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning (bir guruh shaxslarning) mavqeい ustun mavqe deb e’tirof etiladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni)</i></p>

# V

Vakolatli davlat organi	<p>Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish vakolati davlat tomonidan berilgan organ.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 672-I – son Qonuni)</i></p>
Vaksinatsiya	<p>Sil kasalligining oldini olish maqsadida chaqaloqlarda faol immunitet hosil qilish usuli.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to‘g‘risida» 11.05.2001 yildagi 215-II – son Qonuni)</i></p>
Valyuta boyliklari	<p>Chet el valyutasi;</p> <p>qimmatli qog‘ozlar – chet el valyutasidagi fond boyliklari (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar);</p> <p>chet el valyutasidagi to‘lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditivlar va boshqalar);</p> <p>qimmatbaho metallar – har qanday ko‘rinish va holatdagi oltin, kumush, platina hamda platina guruhiga kiruvchi (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy), metallar shunday metallardan ishlangan zargarlik buyumlari va boshqa ro‘zg‘or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno;</p> <p>tabiiy qimmatbaho toshlar – sayqal berilgan va sayqal berilmagan shakldagi olmos, la’l, zumrad, yoqut, aleksandrit, shuningdek marvarid, shunday toshlardan ishlangan zargarlik va boshqa ro‘zg‘or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» 07.05.1993 yildagi 841-XII – son Qonuni)</i></p>

Valyuta operatsiyalari	<p>Valyuta boyliklariga nisbatan bo‘lgan egalik huquqining o‘tishi bilan bog‘liq operatsiyalar, shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda chet el valyutasidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining pul birligidan to‘lov vositasi sifatida foydalanish bilan bog‘liq operatsiyalar;</p> <p>valyuta boyliklarini xorijdan O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va jo‘natish hamda O‘zbekiston Respublikasidan xorijga olib chiqish va jo‘natish; xalqaro ko‘lamda pul o‘tkazish ishlarini amalga oshirish kiradi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» 07.05.1993 yildagi 841-XII – son Qonuni)</i></p>
Vasiylik	<p>O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan etim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta’midot, tarbiya va ta’lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida» 02.01.2014 yildagi O‘RQ-364 – son Qonuni)</i></p>
Vasiylik va homiylik	<p>Ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ularga ta’midot, tarbiya hamda ta’lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan, homiylik esa o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalarga nisbatan belgilanadi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida» 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139 – son Qonuni)</i></p>

Veksel	<p>Veksel beruvchining yoki vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>
Voyaga etmagan	<p>O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida» 29.09.2010 yildagi O‘RQ-263 – son Qonuni)</p>
Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi	<p>Voyaga etmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida» 29.09.2010 yildagi O‘RQ-263 – son Qonuni)</p>

## X

Xavfli yuklar	<p>1. Muayyan omillar mavjud bo‘lganda o‘z xossalari va xususiyatlariiga ko‘ra tashish jarayonida, ortish-tushirish ishlarini bajarish va saqlash chog‘ida portlash, yong‘in chiqishiga yoki tashilayotgan yuklar, texnika vositalari, qurilmalar, binolar va</p>
---------------	---

	<p>inshootlar, boshqa ob'ektlarning shikastlanishiga, shuningdek odamlar hayoti yoki sog'lig'iga ziyon etishiga, hayvonlarning nobud bo'lishiga, atrof tabiiy muhitning zararlanishiga sabab bo'lishi ehtimoli bor moddalar, materiallar, buyumlar, ishlab chiqarish va boshqa faoliyat chiqindilari.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to 'g'risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni).</i></p> <p>2. O'ziga xos xossalari va xususiyatlari tufayli muayyan omillar mavjud bo'lgani taqdirda tashish, yuk ortish-tushirish ishlari jarayonida tashilayotgan yuklar, texnika vositalari, qurilmalar, bino va inshootlar, boshqa ob'ektlarning portlashi, yonishi yoki shikastlanishiga, shuningdek odamlar hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar etkazilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan moddalar, materiallar, buyumlar, chiqindilar.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to 'g'risida» 11.05.2001 yildagi 213-II – son Qonuni)</i></p>
Xalq ijodiyoti asarlari	<p>Aniq muallifi bo'lmagan ertaklar, qo'shiqlar, raqslar, manzarali-amaliy san'at asarlari hamda badiiy va havaskorlik xalq ijodiyotining boshqa natijalari.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to 'g'risida» 20.07.2006 yildagi O'RQ-42 – son Qonuni)</i></p>
Xalqaro terrorizm	<p>Bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to 'g'risida» 15.12.2000 yildagi 167-II – son Qonuni)</i></p>

Xizmat muddati	<p>Tovardan foydalanishning belgilangan muddati bo‘lib, u tamom bo‘lgach, tovarning texnik holatidan qat’i nazar, undan foydalanish to‘xtatilishi lozim.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i></p>
Xususiylashtirish	<p>Jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo‘lмаган yuridik shaxslarning ommaviy mulki ob’ektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida» 19.11.1991 yildagi 425-XII – son Qonuni)</i></p>
Xo‘jalik shartnomasi	<p>Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuv xo‘jalik shartnomasi deyiladi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» 29.08.1998 yildagi 670-I – son Qonuni)</i></p>
Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar	<p>1. Tovarlar ishlab chiqarish, sotish, sotib olish va xizmatlar ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi barcha tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar, shu jumladan xorijiy yuridik shaxslar, ularning birlashmalari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat</i></p>

	<p><i>to ‘g‘risida» 27.12.1996 yildagi 355-I – son Qonuni).</i></p> <p>2. Tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan chet ellik yuridik shaxs, xo‘jalik boshqaruvi organi, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to ‘g‘risida» 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319 – son Qonuni)</i></p>
--	---

## Y

Yig‘ma elektron katalog	<p>Axborot-kutubxona muassasalarining elektron kataoglari majmuai.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to ‘g‘risida» 13.04.2011 yildagi O‘RQ-280 – son Qonuni)</i></p>
Yod etishmasligi kasalliklari	<p>Organizmda yodning etishmasligi oqibatida qalqonsimon bez kasalliklari ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan kasalliklar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yod etishmasligi kasalliklari profilaktikasi to ‘g‘risida» 03.05.2007 yildagi O‘RQ-97 – son Qonuni)</i></p>
Yod etishmasligi kasalliklari profilaktikasi	<p>Yod etishmasligi kasalliklarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yod etishmasligi kasalliklari profilaktikasi to ‘g‘risida» 03.05.2007 yildagi O‘RQ-97 – son Qonuni)</i></p>

Yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari	Ishlab chiqarish jarayonida yod bilan boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yod etishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risida» 03.05.2007 yildagi O‘RQ-97 – son Qonuni)</i>
Yodlangan tuz	Ishlab chiqarish jarayonida yod bilan boyitilgan osh tuzi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yod etishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risida» 03.05.2007 yildagi O‘RQ-97 – son Qonuni)</i>
Yo‘l bo‘yi mintaqasi	Ajratilgan mintaqaga tutashgan, chegaralarida aholi xavfsizligini va transportning harakatlanish xavfsizligini ta’minlash uchun erdan foydalanishning alohida shartlari belgilanadigan er uchastkasi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobilъ yo‘llari to‘g‘risida» 02.10.2007 yildagi O‘RQ-117 – son Qonuni)</i>
Yo‘l harakati	Odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo‘llar doirasida harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakat havf-sizligi to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 818-I – son Qonuni)</i>
Yo‘l harakati xavfsizligi	Yo‘l harakati qatnashchilarining yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchli yo‘l harakati holati.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakat havf-sizligi to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 818-I – son Qonuni)</i>

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash	Yo‘l-transport hodisalarining yuzaga kelish sabablarini oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og‘irligini engillatishga qaratilgan faoliyat.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakat havfsizligi to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 818-I – son Qonuni)</i>
Yo‘l harakati qatnashchisi	Yo‘l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo‘lovchisi yoki piyoda tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxs.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakat havfsizligi to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 818-I – son Qonuni)</i>
Yo‘l harakatini tashkil etish	Yo‘llarda harakatni boshqarish bo‘yicha huquqiy, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakat havfsizligi to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 818-I – son Qonuni)</i>
Yo‘l-transport hodisasi	Transport vositasining yo‘ldagi qatnovi jarayonida sodir bo‘lib, fuqarolarning o‘limi yoki ularning sog‘lig‘iga zarar etishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar etkazilishiga sabab bo‘lgan hodisa.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakat havfsizligi to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 818-I – son Qonuni)</i>
Yo‘lovchi	1. Yo‘l hujjatlariga ega bo‘lgan va poezdda safar qiluvchi fuqaro (jismoniy shaxs).  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i>

	<p>2. Tashuvchining xizmatharidan foydalanuvchi jismoniy shaxs.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiyf sug‘urta qilish to‘g‘risida» 26.05.2015 yildagi O‘RQ-386 – son Qonuni)</p>
Yo‘lovchining mol-mulki	<p>Bagaj va yo‘lovchining o‘zi bilan birga tashiyotgan qo‘l yuki.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiyf sug‘urta qilish to‘g‘risida» 26.05.2015 yildagi O‘RQ-386 – son Qonuni)</p>

## Ya

Yagona o‘lchov birligi	<p>O‘lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma’lum bo‘lgan o‘lchov holati.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</p>
Yadroviy xavfsizlik	<p>Yadroviy materialdan xavfsiz foydalanishni ta’millonchi chora-tadbirlar majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 120-II – son Qonuni)</p>
Yakka tartibdagi profilaktika ishi	<p>Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga etmaganlarning huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xattiharakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat.</p>

	<i>(O'zbekiston Respublikasining "Voyaga etmaganlar o'rtaida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida» 29.09.2010 yildagi O'RQ-263 – son Qonuni)</i>
Yaroqlilik (saqlash) muddati	Muayyan davr bo'lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo'ladi va u tamom bo'lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i>

## Ye

Yer osti suvlari	Er sathidan pastda er qobig'inining tog' jinslari qatlamlarida joylashgan suvlari.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</i>
Yer ubti suvlari	Er qobig'inining ustida joylashgan suvlari.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» 06.05.1993 yildagi 837-XII – son Qonuni)</i>
Yetim bola	Otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida» 07.01.2008 yildagi O'RQ-139 – son Qonuni)</i>

## Yo

Yozma xat-xabarlar	<p>Oddiy, buyurtma va qimmatli xatlar, banderollar, oddiy va buyurtma pochta varaqchalari hamda sekogrammalari (ko‘zi ojizlar uchun), shuningdek mayda paketlar.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 118-II – son Qonuni)</i></p>
Yong‘in	<p>Odamlarning hayoti va (yoki) sog‘lig‘iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar etkazadigan, nazorat qilib bo‘lmaydigan yonish.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in havfsizligi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-226 – son Qonuni)</i></p>
Yong‘in nazorati	<p>Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyat.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in havfsizligi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-226 – son Qonuni)</i></p>
Yong‘in xavfsizligi	<p>Odamlarning, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkining, shuningdek atrof tabiiy muhitning yong‘inlardan himoyalanganligi holati.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in havfsizligi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-226 – son Qonuni)</i></p>
Yong‘in xavfsizligi talablarining	<p>Yong‘in xavfsizligi talablarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik.</p>

buzilishi	(O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in havfsizligi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-226 – son Qonuni)
Yong‘inga qarshi rejim	<p>Yong‘in xavfsizligi talablari buzilishining oldi olinishini va yong‘inlar o‘chirilishini ta’minlash yuzasidan odamlarning xatti-harakat qoidalari, ishlab chiqarishni tashkil etish va (yoki) binolarni (hududlarni) saqlash tartibi.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in havfsizligi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-226 – son Qonuni)</p>
Yong‘inga qarshi alohida rejim	<p>Yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan davrda muayyan hududlarda qonun hujjatlariga muvofiq yong‘in xavfsizligining qo‘sishimcha talablarini belgilash.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in havfsizligi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-226 – son Qonuni)</p>
Yong‘indan saqlash xizmati	<p>Odamlarning hayoti va sog‘lig‘ini, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni yong‘inlardan himoya qilish, shuningdek ob’ektlarda, aholi punktlarida hamda boshqa hududlarda yong‘in xavfsizligini talab darajasida saqlab turish maqsadida belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in havfsizligi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-226 – son Qonuni)</p>
Yong‘inlar profilaktikasi	<p>Yong‘inlar kelib chiqishi ehtimolini istisno etishga va ularning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan ogohlantirish chora-tadbirlari majmui.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in havfsizligi to‘g‘risida» 30.09.2009 yildagi O‘RQ-226 – son Qonuni)</p>

Yosh mutaxassis	<p>Oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini bitirgan, ta’lim muassasasini bitirgaganidan so‘ng olgan ixtisosligi bo‘yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjatda ko‘rsatilgan ixtisosligi bo‘yicha ishlayotganiga uch yildan ko‘p bo‘lmagan o‘ttiz yoshdan oshmagan xodim.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida» 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406 – son Qonuni)</i></p>
Yosh oila	<p>Er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga etkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol).</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida» 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406 – son Qonuni)</i></p>
Yoshlar tadbirkorligi	<p>Yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta’sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida» 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406 – son Qonuni)</i></p>
Yoshlarga oid davlat siyosati	<p>Davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida» 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406 – son Qonuni)</i></p>

## Yu

Yuk	<p>Tashish uchun temir yo‘l transporti korxonasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan, o‘z vaqtida eltib berilishi va saqlanishi uchun temir yo‘l javobgar bo‘lgan temir yo‘l tashish ob’ekti.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i></p>
Yuk jo‘natuvchi	<p>O‘z nomidan yoxud yuk yoki yuk bagaji egasi nomidan ish ko‘rvuchi va tashish hujjatlarida qayd etilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida» 15.04.1999 yildagi 766-I – son Qonuni)</i></p>
Yuqori chastotali qurilmalar	<p>Radiochastotalar energiyasini sanoat, ilmiy, tibbiy, maishiy yoki boshqa maqsadlarda hosil qilish va undan foydalanish uchun mo‘ljallangan uskunalar yoki asboblar, ulardan radioto‘lqinlarni tarqatish yoki qabul qilish maqsadida foydalanish bundan mustasno.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasining “Radiochastotalar spektri to‘g‘risida» 25.12.1998 yildagi 725-I – son Qonuni)</i></p>

## Z

Zaharvandlik (toksikomaniya)	<p>Psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo‘lmagan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy, giyohvandlik vositalarga o‘xshash ruhiyatga faol ta’sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog‘liq kasallik.</p>
------------------------------	---

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» 19.08.1999 yildagi 813-I – son Qonuni)</p>
Zot	<p>Genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq biologik va morfologik xususiyatlari hamda belgilariga qarab aniqlanadigan hayvonlar (shu jumladan parrandalar, hasharotlar, ipak qurti) yoki ularning duragaylari guruhi bo‘lib, bu xususiyatlar hamda belgilarning ayrimlari muayyan guruhgagina xos bo‘lib, uni hayvonlarning boshqa guruhlaridan farqlab turadi. Zot guruhi, zot ichidagi tip (zonal tip), zavod tipi, zavod liniyasi, zot oilasi, partenoklonlar, liniyalar, duragaylar zotning muhofaza qilinadigan ob’ektlaridir;</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida» 30.08.1996 yildagi 270-I – son Qonuni)</p>

## O‘

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining g‘ayriqonuniy nusxalari	<p>Intellektual mulk to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» 25.04.1997 yildagi 415-I – son Qonuni)</p>
O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari	<p>Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar egalari O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga pul mablag‘lari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat’iy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» 22.07.2008 yildagi O‘RQ-163 – son Qonuni)</p>

O‘lchov vositasi	O‘lchovlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo‘lgan texnika vositasi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘-risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</i>
O‘lchovlarning bajarilish uslubiyoti	Operatsiyalar va qoidalar majmui bo‘lib, ularning bajarilishi xatolari ma’lum bo‘lgan o‘lchov natijalari olishni ta’minlaydi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘-risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</i>
O‘lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish	O‘lchovlarni bajarish uslubiyotining unga qo‘yilgan metrologiya talablariga mosligini baholash hamda tasdiqlash maqsadida tadqiqot o‘tkazish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘-risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</i>
O‘lchov vositalarini kalibrlash	Metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlarini va o‘lchov birliklarining qo‘llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi (markazi) bajaradigan operatsiyalar majmui.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘-risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</i>
O‘lchov vositalarini metrologik attestatsiya qilish	Yagona namunalarda ishlab chiqariladigan (yoki O‘zbekiston hududiga yagona namunalarda olib kiriladigan) o‘lchov vositalarining xossalariini sinchiklab tadqiq etish asosida ular qo‘llanish uchun haqqoniyligini ekanligining metrologiya xizmati tomonidan e’tirof etilishi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘-risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)</i>

O‘lchov vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish	O‘lchov vositalarining belgilab qo‘yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari (vakolat berilgan boshqa organlar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan operatsiyalar majmui.  (O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida» 28.12.1993 yildagi 1004-XII – son Qonuni)
O‘simliklarni himoya qilish vositalari	O‘simliklarni himoya qilish uchun ishlatiladigan kimyoviy va biologik vositalar.  (O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 116-II – son Qonuni)
O‘simliklarni himoya qilish vositalarini qo‘llash reglamenti	O‘simliklarni himoya qilish vositasi sifatida qo‘llaniladigan har bir kimyoviy yoki biologik vositadan foydalanishda rioya etilishi shart bo‘lgan talablar (usullar, davriylik, muddatlar, normalar va boshqalar).  (O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 116-II – son Qonuni)
O‘simliklarni himoya qilishning biologik vositalari	O‘simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o‘tlarga qarshi kurashda ishlatiladigan tabiiy organizmlarga aynan o‘xshash biologik moddalar, sun’iy ravishda yaratilgan mavjudotlar, genetik etishtirilgan o‘simlik yoki boshqa organizm.  (O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida» 31.08.2000 yildagi 116-II – son Qonuni)

## G‘

G‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar	Voyaga etmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida» 29.09.2010 yildagi O‘RQ-263 – son Qonuni)</i>
G‘ayriijtimoiy xulq-atvor	Shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida» 14.05.2014 yildagi O‘RQ-371 – son Qonuni)</i>

## Ch

Chet el valyutasi	Tegishli ajnabiy davlatda muomalada bo‘lgan va qonuniy to‘lov vositasi hisoblangan banknot ko‘rinishdagi chet el pul belgilari, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan, ammo O‘zbekiston Respublikasi pul belgilariga almashtirilishi lozim bo‘lgan chet el pul belgilari; schytarda va omonatlarda bo‘lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi va xalqaro hisob-kitob birliklaridagi mablag‘lar kiradi.
-------------------	---

	<p>(O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» 07.05.1993 yildagi 841-XII – son Qonuni)</p>
Chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish ob‘ektlari	<p>Chiqindilarni to‘plash, saqlash, tashish, ko‘mib tashlash, qayta ishslash, utilizatsiya va realizatsiya qilish uchun foydalaniladigan ob‘ektlar.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</p>
Chiqindi pasporti	<p>Chiqindi kelib chiqqan joyni hamda chiqindining individual xususiyatlarini tasdiqlovchi hujjat.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</p>
Chiqindilar	<p>Ishlab chiqarish yoki iste’mol qilish jarayonida xom ashyo, materiallar, xomaki mahsulotlar, boshqa buyumlar yoki mahsulotlarning hosil bo‘lgan qoldiqlari, shuningdek o‘zining iste’mol xususiyatlarini yo‘qotgan tovarlar (mahsulotlar).</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</p>
Chiqindilarni joylashtirish limiti	<p>Muayyan muddatga joylashtirish ruxsat etilgan chiqindilarning eng yuqori miqdori.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</p>
Chiqindilarni joylashtirish ob‘ekti	<p>Chiqindilarni saqlash hamda ko‘mib tashlash uchun maxsus ajratilgan va jihozlangan joy.</p> <p>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</p>

Chiqindilarni ko‘mib tashlash	Chiqindilarni, ifloslantiruvchi moddalar atrof-muhitni bulg‘atishining oldini olishga qaratilgan hamda bu chiqindilardan kelgusida foydalanish imkoniyatini istisno etadigan tarzda, ajratib qo‘yish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</i>
Chiqindilarni saqlash	Ko‘mib tashlash, qayta ishslash yoki utilizatsiya qilish maqsadida chiqindilar olib ketilguncha ularni maxsus jihozlangan to‘plagichlarda saqlash.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</i>
Chiqindilarni utilizatsiya qilish	Chiqindilar tarkibidan qimmatli moddalarini ajratib olish yoki chiqindilarni ikkilamchi xom ashyo, yoqilg‘i, o‘g‘it sifatida va boshqa maqsadlarda ishlatish.  <i>(O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</i>
Chiqindilarni qayta ishslash	Chiqindilarni ekologik jihatdan bexatar saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish maqsadida ularning fizik, kimyoviy yoki biologik xususiyatlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq texnologik operatsiyalarni amalga oshirish.  <i>O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</i>
Chiqindilarning hosil bo‘lish normativi	Mahsulot birligi ishlab chiqarilayotganda yoki boshlang‘ich xom ashyo birligidan hosil bo‘ladigan muayyan turdagи chiqindilarning belgilangan miqdori.  <i>O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida» 05.04.2002 yildagi 362-II – son Qonuni)</i>

## Sh

Shartnoma	Tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to'g'risida iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi og'zaki yoki yozma kelishuv.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida» 26.04.1996 yildagi 221-I – son Qonuni)</i>
Shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlar	Xodimning ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarini aks ettiruvchi arxiv hujjatlari.  <i>(O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida» 15.06.2010 yildagi O'RQ-252 – son Qonuni)</i>

**Milliy qonunchilikdagi asosiy huquqiy tushunchalarining izohli lug‘ati.** – T., TDSHU, 2021. – 160 b.

**Tuzuvchilar:** Sharipov Rustam Husniddinovich  
Sharipova Hilola Rustamovna

O‘quvchilar e‘tiboringa xavola etilayotgan mazkur nashrda O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida foydalanilgan asosiy tushunchalar izohi bilan alifbo tartibida berilgan.

Qonun ijodkorligida foydalaniladigan asosiy tushunchalarni talqin etish va amaliyotda qo‘llashga alohida e‘tibor qaratish lozim. Sababi, bir qator holatlarda bir tushunchaning o‘zi turli qonun hujjatlarida har xil ma’noda berilishi va talqin etilishini kuzatish mumkin. Buni esa, o‘z navbatida, mazkur qonun hujjatlarini amaliyotda qo‘llashda hisobga olish zarur, deb hisoblaymiz.

Mazkur nashr ilmiy xodimlar, amaliyotchi yuristlar, yuridik va tillarni o‘qitishga ixtisoslashgan oliygochlarning o‘qituvchilari, magistrant va talabalari hamda qonunchilik texnikasi masalalari bilan qiziqqan barcha o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

**Mas‘ul muharrir:**  
**Rustam Zufarov**

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish” kafedrasining professori,  
yuridik fanlar doktori

**Taqrizchilar:**  
**Nilufar Xodjaeva**

TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasini  
mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Umid Aminov**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokyraturasini Akademiyasi “Iqtisodiy jinoyatlar va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashni tashkil etish” kafedrasini o‘qituvchisi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasining 2021 yil  
27 avgustdaggi 1-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.